



TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI

UMUMTA'LIM MUASSASALARIDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR UCHUN QULAY MUHIT YARATISH

o'quv-uslubiy qo'llanma

Ta'lim sohasidagi rahbar va pedagog kadrlar uchun



Toshkent - 2025

“Umumta’lim massalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun qulay muhit yaratish”- ta’lim sohasidagi rahbar va pedagog kadrlar uchun mo’ljallangan o’quv-uslubiy qo’llanma bo’lib, unda inklyuziv ta’lim jarayonini amaliyotga joriy etish hamda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun qulay va teng imkoniyatli muhit yaratish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

O’zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan ishlab chiqilgan. Toshkent - 2025. 86 bet.

“Umumta’lim muassasalarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun qulay muhit yaratish” nomli o’quv-uslubiy qo’llanma O’zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi Ilmiy uslubiy Kengashining 2025-yil 1-iyuldagi 3-sonli yig’ilish qarori bilan ma’qullangan.

Mazkur o’quv-uslubiy qo’llanma O’zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktori v.v.b. Yuliya Risyukovaning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

Mas’ul muharrirlar:

F. Qodirova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Maxsus pedagogika kafedrasini mudiri, p.f.d, professor;

G. Alimova – O’zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi Ixtisoslashtirilgan pedagogika va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo’limi boshlig’i;

M. Manazarova – Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi Bino va inshootlardan foydalanishni muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo’limi bosh mutaxassisi

Taqrizchilar:

Kohei Horiba	Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi (JICA)ning Maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’lim amaliyotini kuchaytirish loyihasi guruh rahbari, Yaponiya xalqaro taraqqiyot markazi katta ilmiy xodimi, Inc.
D.Nurkeldiyeva	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim fakulteti dekani, p.f.n., professori
E.Musaxonov	O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Toshkent shahar boshqarmasi Bolalarni ijtimoiy himoya qilish sho’ba mudiri
F.Alijonov	Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish Respublika markazi direktori
G.Muxamedova	O’zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasining sanitariya-gigiyena boshqarmasi ilmiy xodimi

© **O’.Odiljonov, S.Mo’minov, O.Xudayberganov**

O’quv-uslubiy qo’llanma ta’lim sohasidagi rahbar va pedagog kadrlarga tavsiya sifatida ishlab chiqilgan.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning teng ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan. Shu bois, maktab binolari har bir o'quvchi uchun qulay, xavfsiz foydalana oladigan tarzda qayta jihozlanishi va takomillashtirilishi lozim.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid yagona standartlarning ishlab chiqilgani va tegishli yo'riqnoma qabul qilinganini mamnuniyat bilan qo'llab-quvvatlaymiz. Ushbu uslubiy qo'llanma nafaqat sinf xonalari bilan chegaralanib qolmasdan, maktabning barcha hududlarini ham o'z ichiga olgan. U inklyuziv muhitni shakllantirish uchun zarur bo'lgan dizayn va me'yorlarni o'zida mujassam etgan.

Biz bu uslubiy qo'llanma O'zbekistondagi umumiy o'rta ta'lim maktablarini inklyuziv muhitga moslashtirishga xizmat qilishiga ishonamiz va barcha hududlardagi har bir maktab darajasida amalga oshirilishini tavsiya etamiz.

Shu bilan birga, barcha maktablarni ushbu standartlarga zudlik bilan moslashtirish oson emasligini inobatga olib, har bir ta'lim muassasasi uzoq muddatli rivojlantirish dasturini ishlab chiqib, eng muhim joylarni ustuvorlik asosida qayta jihozlashni bosqichma-bosqich amalga oshirishi kerak deb hisoblaymiz.

Shuningdek, uslubiy qo'llanmada belgilangan talablarni to'liq bajarish imkoni mavjud bo'lmaganda, zarur muqobil choralar ko'rish, inklyuziv muhitni barcha bolalar uchun maksimal darajada ta'minlash bo'yicha davlat idoralari maslahatchi va muvofiqlashtiruvchi sifatida harakat qilishi tavsiya etiladi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, maktab infratuzilmasida inklyuziv muhitni yaratish bir martalik jarayon emas. U muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishi, baholanishi va takomillashtirilishi lozim. "Spiral Up" tamoyili asosida doimiy ravishda tahlil va takomillashtirish ishlari olib borilishi maktab binolarini yanada qulay va funksional qilishga yordam beradi.

Bundan tashqari, inklyuziv muhitni yaratishda maktabning to'g'ridan-to'g'ri foydalanuvchilari bo'lgan barcha o'quvchilarning fikr va takliflarini inobatga olish juda muhim. Ular bilan maslahatlashish, ularning ehtiyojlarini o'rganish va maktab infratuzilmasini ularning talablariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

堀場 浩平 堀場浩平

Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi (JICA)ning Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'lim amaliyotini kuchaytirish loyihasi guruh rahbari, Yaponiya xalqaro taraqqiyot markazi katta ilmiy xodimi, Inc.

Kohei Horiba

HORIBA Kohei

Team Leader, JICA Project for Strengthening Practice of Inclusive Education in Preschool Education Senior Researcher, International Development Center of Japan, Inc.

email: horiba.k@idcj.or.jp

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	6
I BOB.	UMUMTA'LIM MUASSASALARI HUDUDIDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR UCHUN QULAY VA XAVFSIZ MUHIT YARATISH BO'YICHA TAVSIYALAR	9
1-§.	Umumiy tavsiyalar.....	9
2-§.	Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun maktab hovlisida qulay muhit yaratish bo'yicha tavsiyalar.....	11
3-§.	Umumta'lim muassasalarida ta'lim sharoitlari va tashkil etilishiga qo'yiladigan sanitariya-epidemiologik talablar.....	25
4-§.	Binolarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni (shaxslar) inobatga olgan holda loyihalashtirishda shaharsozlik normalari va qoidalari	27
5-§.	Yong'in xavfsizligi talablari.....	29
6-§.	Binoga kirish (kiraverish).....	32
7-§.	Panduslar.....	34
8-§.	Tutqichlar.....	38
9-§.	Ko'zi ojiz bolalar uchun axborot ko'rsatkichlari.....	40
II. BOB.	UMUMTA'LIM MUASSASALARI BINOSINING FOYE, YO'LAKLAR, KUTUBXONA, OSHXONA, MA"URIY-METODIK VA BOSHQA MAXSUS PEDAGOG XIZMAT XONALARIDA BOLALAR UCHUN QULAY VA XAVFSIZ MUHIT YARATISH BO'YICHA TAVSIYALAR	43
1-§.	Binoning faye va yo'laklari.....	43
2-§.	Bino yo'laklarda qulay muhit yaratishga doir tavsiyalar	48
3-§.	Binodagi zinalar.....	49
4-§.	Oshxonadagi to'siqsiz qulay muhit.....	53



5-§.	Sanitariya xonalarida yaratilishi tavsiya etilgan sharoitlar.....	55
6-§.	Faollar zali.....	59
7-§.	Psixolog xizmat xonasini jihozlash bo'yicha tavsiyalar	62
8-§.	O'qituvchi-logoped xonasini jihozlash bo'yicha tavsiyalar.....	64
9-§.	Tibbiyot xonasini jihozlash bo'yicha tavsiyalar.....	66
10-§.	Kutubxonani jihozlash bo'yicha tavsiyalar.....	67
11-§.	Sinf xonalarni jihozlash bo'yicha tavsiyalar.....	69
12-§..	ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR UCHUN BOSHQA ZARURIY JIHOZLAR.....	74
	GLOSSARIY.....	82
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	84

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" 2020-yil 15-oktyabrdagi O'RQ-641-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni, "Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5217-sonli qarori, "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-sonli qarorlariga muvofiq, umumta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qulay ta'lim muhitni yaratish va ularning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish uchun inklyuziv ta'limning tarkibiy qismlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonlarini moslashtirish va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga ham inklyuziv ta'lim haqida modda kiritilishi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 50-moddasida "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" jumlasining kiritilishi diqqatga sazovordir.

Shuningdek, umumta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qulay muhit yaratish nafaqat ularning ta'limga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, balki jamiyatning barcha bolalari uchun teng ta'lim olish imkoniyatlarini shakllantirish yo'lidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Har bir bola, jumladan jismoniy, aqliy yoki psixologik cheklovlari bo'lgan bolalar ham, maktab muhitida o'zlarini xavfsiz, erkin va qo'llab-quvvatlangan his qilishi lozim.

Ushbu maqsadga erishish uchun umumta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonlarini tashkil etish va ularga moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, ta'lim sohasi rahbarlari va pedagog kadrlarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashdagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan ta'minlash inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma o'quvchilarning ta'lim jarayonida to'liq ishtirok etishini ta'minlash hamda ularning o'quv-tarbiya jarayoniga to'siq bo'luv-



chi omillarni yengib o'tishga ko'maklashish maqsadida ishlab chiqilgan.

"Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish maqsadida ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog'lomlashtiruvchi sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" kabi muhim vazifalar belgilandi.

Shundayqilib, qulay muhit-bunafaqat maktabinfratuzilmasivajihozlarini, balki ta'lim jarayonida har bir bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirishni ham o'z ichiga olgan keng qamrovli tushunchadir. Bunday muhitni shakllantirishda ta'lim muassasasining barcha jihatlarini maktab binolari, sinf xonalari, sport zallari, o'quv hududlari va atrof-muhit to'liq inobatga olinishi lozim. Qulay muhit faqat jismoniy sharoitlarni yaxshilash bilan cheklanmay, balki psixologik xavfsizlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ham ta'minlashi zarur. Bu esa o'quvchilarning erkin harakatlanishiga, o'qishga bo'lgan qiziqishining ortishiga hamda ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi.

Maktab ma'muriyati va pedagog kadrlar uchun ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma tavsiya sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, unda ta'lim jarayonini inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirish, bolalarning ta'lim jarayonida to'liq ishtirok etishini ta'minlash va zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilgan.

Mazkur qo'llanma maktab jamoasiga inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirishda amaliy tavsiyalar va samarali vositalar taqdim etib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning faolligini oshirish hamda ularning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashadi.

Bundan tashqari, qo'llanmada keltirilgan tavsiyalar bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini moslashtirish, jismoniy cheklavlari bo'lgan o'quvchilarning harakatlanishini yengillashtiruvchi texnik vositalarni joriy etish hamda psixologik jihatdan xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishga xizmat qiladi.

O'quv-uslubiy qo'llanmada umumta'lim muassasalarining kirish hududidan boshlab, sinfxonalar, o'yin maydonchalari, ma'muriy-metodik xonalar hamda sanitariya-gigiyena hududlarigacha bo'lgan infratuzilmalar tahlil qilinib, har bir bolaning jismoniy va psixologik qulayligini ta'minlash uchun zarur tavsiyalar keltirilgan.

Shuningdek, maktab hududida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ning barcha ehtiyojlarini to'liq qondirish maqsadida yordamchi texnologiyalardan foydalanish, sensor muhitni yaxshilash, xavfsizlikni ta'minlash va favqulodda vaziyatlarda ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

O'quv-uslubiy qo'llanmaning asosiy maqsadi:

- umumta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qulay, xavfsiz va samarali ta'lim muhitini yaratishda rahbar va pedagog kadrlarni amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlashdan iborat;

- mazkur qo'llanma ta'lim jarayonini har bir bolaning individual ehtiyojlariga

moslashtirish, jismoniy, psixologik va sensor muhitni yaxshilash bo'yicha tavsiyalarni taqdim etadi.

O'quv-uslubiy qo'llanma yuzasidan asosiy vazifalar quyidagilaridan iborat:

- umumta'lim muassasalarini moddiy-texnik jihozlash bo'yicha rahbar va pedagog kadrlarga uslubiy tavsiyalar berish, shuningdek, sinfxona, o'yin maydonchalari, sanitariya-gigiyena hududlari va boshqa jamoat joylarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qulayliklar yaratishdan iborat;

- sensor (to'siqsiz harakat) muhitni yaxshilash va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tegishli choralarni joriy etish;

- jismoniy va psixologik cheklovlari bo'lgan bolalarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish uchun o'quv jarayonini moslashtirish va individual yondashuvlar tavsiya qilish;

- favqulodda vaziyatlarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy choralarni taqdim etishdan iboratdir.



I BOB. UMUMTA'LIM MUASSASALARI HUDUDIDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR UCHUN QULAY VA XAVFSIZ MUHIT YARATISH BO'YICHA TAVSIYALAR

1-§. UMUMIY TAVSIYALAR

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar tashkil etilgan umumta'lim muassasalarida o'quvchilarning individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishiga va rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash hamda ularga turli shakldagi psixologik yordam ko'rsatish maqsadida maxsus yordam xonalari tashkil etiladi. Ushbu xonalar o'quvchilarning ehtiyojlariga mos maxsus jihozlar bilan to'liq ta'minlanishi lozim.

Maxsus pedagoglar maxsus yordam xonalarida o'quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni amalga oshiradi va ularning rivojlanish jarayonini muvofiqlashtiradi. Ushbu xonalar ta'lim samaradorligini oshirish hamda bolalarning individual ehtiyojlariga mos sharoit yaratish maqsadida maxsus jihozlar va o'quv materiallari bilan ta'minlanishi tavsiya etiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-sonli qarorining "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" nizomida ko'rsatilgan inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflariga qabul qilish belgilangan tibbiy tashxisdagi bolalarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga yordam ko'rsatish maqsadida zarur jihozlar bilan jihozlanishi lozimligi belgilangan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun maxsus jihozlangan xonalar ularning ta'lim jarayonini yengillashtirish va individual ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ushbu xonalar maxsus pedagoglar tomonidan korreksion-pedagogik mashg'ulotlar o'tkazilishi uchun qulay, yorug' va ijobiy kayfiyat yaratadigan tarzda jihozlanishi kerak.

Turli tashxisga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun zamonaviy yordamchi texnologiyalar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar davomida bolalar o'zlarini erkin his qilishlari uchun ergonomik stol va stullar, shuningdek, dam olish uchun divan va kreslo kabi qulay mebellar mavjud bo'lishi tavsiya etiladi. Agar bolada charchoq yoki stress alomatlari kuzatilsa, dam olish va psixologik tiklanish uchun maxsus hudud ajratilishi lozim.

Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish bolalarning o'quv dasturlarini osonroq o'zlashtirishiga ko'maklashadi. Mashg'ulotlar, rehabilitatsiya va davolash jarayonlarini samarali tashkil etish uchun turli xil trenajyorlar va mashq qurilmalari bilan jihozlash tavsiya etiladi.

Balans va motorika kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus jihozlar, jumladan, balans doskalari va turli xil harakat maydonchalari mavjud

bo'lishi lozim. Shuningdek, xonalarda gigiyena talablariga rioya qilish maqsadida qo'l yuvish uchun maxsus joy tashkil etilishi, kerakli gigiyenik vositalar bilan ta'minlanishi hamda chiqindilarni tashlash uchun maxsus idishlar o'rnatilishi tavsiya etiladi.

Umumta'lim muassasalarining alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan xonalar o'quv qurollari va ko'rgazmali vositalarni saqlash uchun javonlar va shkaflar bilan jihozlanishi lozim. Ushbu xonalar zamonaviy kompyuter texnikasi, chop etish qurilmalari hamda ritmika mashg'ulotlari uchun ovoz kuchaytirgich moslamalari bilan ta'minlanishi kerak.

Bunday xonalarda yorug'likni tartibga solish va quyosh nurlaridan himoya qilish maqsadida maxsus pardalar o'rnatilishi kerak. Shuningdek, gigiyenik va qulay muhit yaratish uchun havoni tozalash va mo'tadillashtirish tizimlari (konditioner yoki ventilyatsiya tizimi) mavjud bo'lishi tavsiya etiladi.


Shuningdek, taqdimotlar va namoyishlar uchun multimedia vositalari hamda sinf doskasi bo'lishi kerak. O'qituvchilar uchun qulay ish joyi (o'qituvchi uchun stol, yumshoq stul va kompyuter texnikasi), o'quvchilar uchun esa moslashtirilgan stol va stullar o'rnatilishi zarur.

Ushbu shart-sharoitlar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga qulay va samarali ta'lim muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega.



2-§. ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJI BO'LGAN BOLALAR UCHUN UMUMTA'LIM MUASSASALARI HOVLISIDA QULAY MUHIT YARATISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Hovlining kirish darvozasi peshtoq qismiga maktabning raqami va nomi yirik, aniq va o'qilishi oson bo'lgan harflar bilan yozilishi lozim. Kirish hududida darvozaning ikki tomoniga maktab nomi ko'rsatilgan peshtaxtalar o'rnatilishi tavsiya etiladi. Ushbu peshtaxtalarda chap tomonda davlat tilida, o'ng tomonda esa maktabdagi ta'lim tiliga qarab ingliz, rus yoki qardosh tillarda yozuvlar joylashtirilishi tavsiya etiladi (1-rasm).



1-rasm. Kirish darvozasiga peshtaxtalar o'rnatilishi

Quyida shunday muhit yaratish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan :

1. Jismoniy muhitga moslashtirish:

To'siqsiz yo'laklar – maktab hovlisida barcha o'quvchilar, jumladan, nogironligi bo'lgan bolalar uchun to'siqsiz harakatlanish imkoniyatini yaratish maqsadida keng va taktil yo'laklar tashkil etilishi tavsiya etiladi. Shuningdek, nogironlar aravasida harakatlanuvchi bolalar uchun maxsus rampalar va ko'tarish moslamalari o'rnatilishi zarur. Yo'laklarning kengligi va rampalarning texnik parametrlari shaharsozlik normalari va qoidalari (SHNQ) talablariga mos bo'lishi lozim. Barcha zinapoyalarga alternativ kirish yo'llari, jumladan, panduslar yoki ko'tarish platformalari moslashtirilishi kerak.

Maxsus moslashtirilgan o'yin maydonchalari - mazkur maydonchalar nogironligi bo'lgan bolalarning harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash maqsadida maxsus ji-

hozlar bilan ta'minlanishi lozim. Ushbu maydonchalarda nogiron bolalar uchun qo'llab-quvvatlovchi uskunalar, xavfsizlik elementlari hamda aravachada harakatlanuvchi bolalar foydalanishi mumkin bo'lgan maxsus o'yin qurilmalari o'rnatilishi tavsiya etiladi. Bundan tashqari, rangli va kontrastli belgilar, turli sensor o'yin vositalari hamda motorika va idrok qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan maxsus jihozlar bilan boyitilishi lozim. Ushbu yechimlar bolalarning ijtimoiy moslashuvi va o'yin orqali o'z imkoniyatlarini kengaytirishiga ko'mak beradi.

Qulay o'tirish joylari - hovlida bolalarning dam olishi va o'zaro muloqot qilishi uchun qulay va xavfsiz o'tirish joylari tashkil etilishi lozim. Ushbu joylar bolalarning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos holda jihozlaniishi zarur. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maxsus moslashtirilgan o'rindiqlar aravachada harakatlanadigan o'quvchilar uchun qulay masofada joylashtirilishi tavsiya etiladi. Shuningdek, maktab hovlisida bolalarning xavfsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida yo'nalish ko'rsatuvchi belgilar o'rnatilishi hamda hovlidagi to'siqlar, daraxtlar va boshqa elementlar kontrastli ranglarda belgilanishi lozim. Bu esa ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar uchun xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi.

2. Psixologik muhit va ijtimoiy moslashuvni tashkil etish:

Yashil hududlar va dam olish burchaklari - hovlida bolalar uchun yashil hududlar tashkil etilishi tavsiya etiladi. Ushbu hududlar bolalarning psixologik dam olishi, tabiat bilan uyg'unlashishi va ijobiy muhitda vaqt o'tkazishi uchun qulay sharoit yaratadi. Yashil hududlarda bolalar uchun qulay va xavfsiz o'yin elementlari, shuningdek, sensor va motorik rivojlanishga yordam beradigan maxsus jihozlar o'rnatilishi lozim. Ushbu jihozlar bolalarning hissiy idrokini rivojlantirish, jismoniy faolligini oshirish va ijtimoiy muloqotni mustahkamlash imkonini beradi.

Interaktiv o'quv jihozlari - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun hovlida turli interaktiv o'quv jihozlari o'rnatilishi tavsiya etiladi. Ushbu jihozlar bolalarning motorika va sensor qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, sensor panellar, rangli o'yin elementlari va turli shakldagi konstruksiyalar bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, muvozanat va idrok ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Ta'limiy muhitni qo'llab-quvvatlash:

Ta'lim jarayoni uchun maxsus maydonlar - hovlida ta'lim jarayonini ochiq havoda o'tkazish imkoniyati yaratilishi tavsiya etiladi. Ushbu maxsus ajratilgan o'quv maydonlari bolalarga tabiat bilan bog'liq mashg'ulotlarni olib borish, kuzatish, tajriba o'tkazish va interaktiv ta'lim muhitida ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bunday maydonlarda o'quv qurilmalari, yoritgichlar hamda taktil elementlar bilan jihozlangan maxsus hududlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa bolalarning idrok, mantiqiy fikrlash va atrof-muhitni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sensorlik elementlari va turli o'quv qurilmalari – maktab hovlisida bolalarning sensor qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus sensor elementlar va o'quv qurilmalari o'rnatilishi tavsiya etiladi. Ushbu jihozlar bolalarning diqqatni jamlash qobiliyatini oshirish, ranglar, shakllar va materiallarni idrok etish hamda muhit bilan faol o'zaro aloqada bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek, maxsus yoritgichlar va vizual elementlar bolalarning ta'lim jarayoniga faol qo'shilishiga, mustaqil o'rganish va kashf qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Turli ob-havo sharoitlariga moslashish:

Qulay yo'laklar va o'tirish joylari uchun qoplamalar (yoki inventarlar)

- turli ob-havo sharoitlarini inobatga olgan holda, maktab hovlisidagi yo'laklar va o'tirish joylari qulay va yog'ingarchilikdan himoya qiluvchi qoplamalar bilan jihozlanishi lozim. Bu esa bolalarning har qanday ob-havo sharoitida xavfsiz va qulay harakatlanishini ta'minlaydi hamda ularning ochiq havoda bo'lish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida maktab hududi mustahkam va yetarli balandlikdagi devor yoki panjaralar bilan o'ralishi lozim (2-rasm).



2-rasm. Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida hudud mustahkam va baland devor yoki panjaralar bilan o'ralishi.

Darvozalar oson ochilib-yopilishi uchun qulay mexanizmlar bilan jihozlangan bo'lishi hamda zarur hollarda mustahkam qulflash tizimiga ega bo'lishi lozim. Bolalar xavfsizligini ta'minlash maqsadida kirish qismlarida elektron nazorat tizimlari o'rnatilishi kerak (3-rasm). Bu tizim ruxsatsiz kirishning oldini oladi va xavfsizlikni oshiradi. Shuningdek, maktab hududi audio yozuvli videoku-zatuv kameralari bilan to'liq jihozlanishi tavsiya etiladi. Bu choralar hududdagi harakatlarni nazorat qilish, favqulodda holatlarning oldini olish va umumiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.




3-rasm. Elektron nazorat qilinuvchi moslamalar (Face ID)

Hovlida tashqi sport maydonlari, vorkaut (jismoniy mashqlar) uchun maxsus inventarlar bilan jihozlangan hududlar, shuningdek, kichik yoshdagi o'quvchilar uchun maxsus o'yin maydonchalari tashkil etilishi tavsiya etiladi (4-rasm). Bumaydonchalar bolalarning jismoniy faolligini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda harakat koordinatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.



4-rasm. Jismoniy mashqlar uchun vorkaut maydonlari

Geografiya fanining amaliy mashg'ulotlari uchun tabiat qo'ynida maxsus geografiya maydonchasi tashkil etilishi tavsiya etiladi. Ushbu maydoncha turli tajribalar o'tkazish, tabiat bilan bog'liq mashg'ulotlarni amalga oshirish va o'quvchilarga fanni amaliy o'rganish imkoniyatini yaratish uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim. Bunday maydoncha meteorologik kuzatuvlar, tuproq tahlillari, geologik tajribalar hamda xarita va kompasdan foydalanish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur sharoit va maxsus o'quv jihozlari bilan ta'minlanishi kerak (5-rasm).



5-rasm. Geografiya maydonchasi uchun zarur bo'ladigan jihozlar

Maktab hovlisida bolalar va ota-onalarning dam olishi uchun mustahkam va xavfsiz o'rindiqlar o'rnatilishi lozim. Ushbu joylarda jihozlar qulay joylashtirilib, nogiron bolalar uchun ham mos bo'lishi ta'minlanishi muhim. Shuningdek,

maktab hududida velosipedlar va tayanch-harakat apparati nuqsoni bo'lgan bolalarning maxsus aravachalari uchun maxsus ajratilgan joylar tashkil etilishi lozim. Bu choralar barcha o'quvchilarning qulay va xavfsiz harakatlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun oson tushunarli va foydalanishga qulay bo'lgan taktil panellar bilan jihozlangan bo'lishi kerak (6-rasm). Ushbu panellar bolalarning mustaqil harakatlanishini qo'llab-quvvatlash va maktab hududida yo'nalishni aniq belgilashga yordam beradi.

Shuningdek, hovli tunda yaxshi yoritilgan bo'lishi uchun yetarli miqdorda yoritish chiroqlari o'rnatilishi lozim. Bu xavfsizlikni oshirish bilan birga, o'quvchilarning kechki mashg'ulotlarda erkin harakatlanishiga ham imkon yarata-di. Bundan tashqari, yong'in xavfsizligi talablariga mos keluvchi o't o'chirish vositalari bilan ta'minlash majburiydir.

Maktab toza ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimiga to'liq ulangan bo'lishi zarur. Ichki va tashqi hududlarni muntazam obodonlashtirish hamda gigiyenik talablarni ta'minlash uchun zarur xo'jalik mollari va elektrotexnika uskunalari yetarli miqdorda mavjud bo'lishi kerak.



6- rasm. Ko'zi ojiz bolalar (shaxslar) uchun umumta'lim muassasasi hovlisining yo'laklariga o'rnatilgan taktil plitkalar

Chiqindilarni to'plash va ajratish uchun ranglar bilan ajratilgan maxsus konteynerlar o'rnatilishi lozim. Ushbu choralar maktab hududida tartib va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilishni ta'minlash bilan birga, o'quvchilar orasida

ekologik madaniyatni shakllantirish va atrof-muhitni asrash bo'yicha mas'uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qiladi (7-rasm).



7-rasm. Chiqindi uchun konteynerlar

Sanitariya-epidemiologiya normalari va qoidalariga muvofiq, maktablar ning har bir qavatida o'g'il va qiz bolalar uchun alohida hojatxonalar bo'lishi lozim. Hojatxona kabinalarining balandligi kamida 175 cm bo'lib, pastki qismi polga 20 cm yetmaydigan to'siqlar bilan ajratilishi kerak. Har bir kabinaning o'lchami 80 cm dan 100 cm gacha bo'lishi, sanitariya inshootlarining umumiy maydoni esa har bir o'quvchi uchun 0,1 kvadrat metr hisobidan belgilanishi lozim.

Shuningdek, hojatxonalarda har 20 nafar qiz o'quvchi uchun 1 ta unitaz, har 30 nafari uchun 1 ta yuvinish joyi, har 40 nafar o'g'il bola uchun esa 1 ta unitaz, 1 ta pissuar va 1 ta yuvinish joyi yetarli miqdorda bo'lishi, sanitariya talablariga javob berishi hamda yaxshi holatda saqlanishi shart. Har bir hojatxona gigiyena vositalari bilan ta'minlanishi zarur bo'lib, ularda hojatxona qog'ozi, chiqindi uchun chelaklar, qo'l yuvish uchun sovun hamda sochiq yoki qog'oz sochiqlar muntazam mavjud bo'lishi kerak. Hojatxonalar maktab binosi ichida joylashgan, kabinalari alohida ajratilgan, toza va gigiyenik sharoitlarga mos bo'lishi bilan birga, doimiy ravishda issiq-sovuq suv, sovun va hojatxona qog'ozi bilan ta'minlanishi hamda uzluksiz ochiq bo'lishi kerak.

Bundan tashqari hojatxonalar sanitariya-gigiyena talablariga to'liq mos keladigan holda jihozlanishi lozim. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maxsus moslashgan hojatxonalar, shu jumladan, qo'l yuvish joylari va maxsus tutqichlar bilan ta'minlanishi lozim(8-rasm)¹.


¹ O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining "Umumta'lim muassasalarida ta'lim sharoitlari va tashkil etilishiga qo'yiladigan sanitariya-epidemiologik talablar to'g'risida" gi 2017-yil 22-dekabrda (0341-16-son SanQvaN) qarori



8-rasm. Umumta'lim muassasasi hududida joylashgan jamoat hojatxona



Hududda bolalar va mehmonlarning manzil bo'ylab to'g'ri harakatlanishlari uchun maxsus belgilar, strelkalar va ko'rsatgichlar (navigatsiya) o'rnatilishi kerak. Shuningdek, hudud tungi yoritish uchun elektr tejovchi chiroqlar bilan ta'minlanishi lozim (9-rasm).



9- rasm. Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun manzil bo'ylab to'g'ri harakatlanishda foydalaniladigan maxsus belgilar, strelkalar va ko'rsatgichlar

- 1 - Nogironlar to'xtashi maxsus joy;
- 2 - Peshtaxta va yordamchi belgilar;
- 3 - Nogiron aravachalari uchun maxsus panduslar;
- 4 - Tutqichlar;
- 5 - Avtomatik tarzda ochiladigan eshiklar;
- 6 - Kontrast belgilar;
- 7 - Yordam chaqirish tugmasi;
- 8 - Kirish eshiklari yaqinida hudud bo'yicha axborot panellari va sxemalar.

Bino va inshootlardagi liftlar qurilmasi SHNQ 2.08.01 va SHNQ 2.08.02 ga, shuningdek mazkur SHNQda belgilangan lift xollariga qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak².

O'rindiqli aravachada harakatlanuvchi nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ularning ikkinchi va undan yuqori qavatlardagi xonalarga, shuningdek, dars mashg'ulotlari bilan bog'liq ish joylariga yetib borishini ta'minlash maqsadida liftlar va maxsus ko'tarish moslamalari o'rnatilishi shart.

Binoning yuqori qavatlariga o'rindiqli aravacha yordamida ko'tarilish usullari loyihalashtirish topshirig'iga muvofiq belgilanadi. Lift yoki ko'tarish moslamalaridan nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) foydalanishi mumkin bo'lgan xonalargacha bo'lgan masofa 500 metrdan oshmasligi kerak.

Agar binoda lift mavjud bo'lmasa, u holda o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun maxsus ko'tarish platformalari yoki moslamalar o'rnatilishi lozim. Ushbu ko'tarish moslamalarining chiqish joyi nogironligi bo'lgan shaxslar tashrif buyuradigan yoki doimiy foydalanadigan xonalar joylashgan qavatlar bilan bir sathda bo'lishi talab etiladi.

O'rindiqli aravachada harakatlanuvchi nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun liftlar kabinasining ichki o'lchamlari quyidagicha bo'lishi lozim:

Eni - kamida 120 cm

Uzunligi - kamida 140 cm

Eshik kengligi - 90 cm dan kam bo'lmasligi

Shuningdek, SHNQ talablariga muvofiq, quyidagi o'lchamlar tavsiya etiladi:

Liftga kirish hududi - 1500 mm (eni) × 1200 mm (bo'yi)

Lift kirish tugmasining joylashuvi - tugmacha poldan 350 mm balandlikda, devordan 1200 mm uzoqlikda bo'lishi kerak


Lift ichkarisidagi kabina o'lchami - 1400 mm (eni) × 1200 mm (bo'yi)

Lift ichidagi tugmachalarning yerdan balandligi - taxminan 150 mm

Shuningdek, chizmada ko'rsatilgan harakatlanish hududi nogironlar aravachasi harakatlanishiga mos ravishda loyihalashtirilishi shart. Lift kabinasi va kirish yo'laklari nogironligi bo'lgan shaxslarning qulay va to'siqsiz harakatlanishini ta'minlash uchun zarur talablarga javob berishi kerak (10-rasm).

² O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2022-yil 26-oktyabrdagi "SHNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari" 185-sonli buyrug'i 59-61- bandlar





10-rasm. Lift parametrlarining tavsiyaviy namunasi

Liftlarning kirish yo'lagi ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun ko'rsatmali taktil qoplama bilan jihozlanishi lozim. Bu qoplamalar liftning kirish joyini aniq belgilash va foydalanuvchilar uchun qulay yo'nalish yaratishga xizmat qiladi.

Har bir lift qurilmasi ichki va tashqi tomonida vizual-tovush signalizatsiyasi kombinatsiyalariga ega bo'lishi kerak. Liftning harakat yo'nalishini aniq ko'rsatish uchun tashqi tarafda, eshik yonida vizual signal qurilmalari o'rnatilishi lozim. Ushbu tizim nogironligi bo'lgan foydalanuvchilarning lift harakatini oson anglashiga yordam beradi.

Shuningdek, lift ichki va tashqi tomonidagi tugmachalar bosma va Brayl alifbosida yozilgan belgilar bilan jihozlanishi kerak. Brayl alifbosidagi belgilar bosma yozuvlarni mazmunan takrorlashi va ko'rish qobiliyati past foydalanuvchilar uchun ma'lumotni aniq tushunish imkoniyatini berishi zarur (11-rasm).



11-rasm. Umumta'lim muassasasi binosida o'rnatilgan liftlarda alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun moslashtirish

3-§. UMUMTA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SHAROITLARI VA TASHKIL ETILISHIGA QO'YILADIGAN SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK TALABLAR

Umumta'lim muassasalari alohida yer uchastkasiga ega bo'lishi, shuningdek, shovqin va havoning ifloslanish manbai bo'lishi mumkin bo'lgan magistral yo'llar, sanoat, kommunal va boshqa obyektlardan uzoqda joylashgan bo'lishi kerak³.

Bir o'quvchiga (bir smenada) ajratilgan umumiy yer maydonining o'lchami umumiy o'rta ta'lim umumta'lim muassasalarining sig'imidani kelib chiqib, quyidagi jadvalga muvofiq belgilanishi lozim.

T/r	O'quvchilar soni (kishi)	Bir o'quvchiga ajratilgan umumiy yer maydoni o'lchami (m ²)
1.	40 - 660 nafar	20
2.	661 - 989 nafar	15
3.	989 nafardan ortiq	10

Maktab hududi o'ralishi va ko'kalamzorlashtirilgan bo'lishi lozim. Hudud chegaralari faqat binoning piyodalar yo'laklariga bevosita tutashgan tomonidan bo'lishi tavsiya etiladi. Ko'kalamzorlashtirishda hududning iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda daraxt va butalar ekish tavsiya etiladi.

Maktab hududini qurilish bo'lmagan qismining 50 foiz maydonini hisobga olgan holda perimetr bo'ylab ko'kalamzorlashtirilishi tavsiya etiladi.

Ko'kalamzorlashtirishda zaharli yoki tikanli o'simliklarni ekish tavsiya etilmaydi.

Maktab hududi dam olish, xo'jalik va sport maydonlariga ajratilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, o'quv-tajriba hududlari ham bo'lishi tavsiya etiladi.

O'quv-tajriba hududini tashkil etishda sport maydonlar va dam olish hududlarini qisqartirish evaziga amalga oshirilishi mumkin emas.

Sport maydoni hududida sport zallarni joylashtirish tavsiya etiladi. Agar sport maydoni hududlari o'quv xonalariga tutash bo'lsa, u holda o'quv xonalaridagi shovqin darajasi gigiyenik normalardan oshmasligi kerak.

Yugurish yo'laklari va sport maydonlarini (voleybol, basketbol va qo'l to'pi maydonlari) qurishda yomg'ir suvlaridan himoya qilish uchun drenaj tizimi o'rnatilishi kerak.

Sport maydoni hududlarini jihozlashda jismoniy tarbiya fan dasturlari, sport seksiyalar mashg'ulotlari va sog'lomlashtirish tadbirlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

³ O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining "Umumta'lim muassasalarida qurilish sharoitlari va tashkiliy sharoitlarga qo'yiladigan sanitariya-epidemiologik talablar to'g'risida" gi 2017-yil 22-dekabrda (0341-16-son SanQvaN) qarori

bilan qoplangan bo'lishi lozim. Sintetik va polimer qoplamalar sovuqqa chidamli, suv quyish tizimiga ega va bolalar salomatligiga zarar yetkazmaydigan materiallardan tayyorlangan bo'lishi kerak.

Sport inventarlari o'quvchilarning yoshi va bo'yiga mos kelishi, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash uchun mustahkam bo'lishi kerak.

Fan o'quv dasturiga muvofiq jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida umumta'lim muassasasi yaqinida joylashgan sanitariya-gigiyena talablarga muvofiq sport inshootlari (maydonlar, stadionlar) da amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Umumta'lim muassasasi hududida uzaytirilgan kun guruhlariga qatnaydigan o'quvchilarning harakatli o'yinlarini tashkil qilish va dam olish uchun hududlar tashkil qilinishi kerak.

Xo'jalik hududlari oshxona va boshqa xonalariga tutash bo'lib, alohida kirish yo'lagiga ega bo'lishi lozim. Agar hududda markazlashgan isitish yoki suv ta'minoti bo'lmasa, xo'jalik hududida qozonxona va suv quyish uchun rezervuar bilan nasos stansiyasi joylashtiriladi.

Xo'jalik hududida umumta'lim muassasasi binosidan kamida 20 metr uzoqlikda chiqindilarni yig'ish maydoni qurilgan bo'lishi lozim. Maydon qattiq qoplamali bo'lishi va u yerda zich yopiladigan qopqoqli konteynerlar o'rnatilishi lozim. Maydonning o'lchami konteyner asosi maydonidan har tomoni 1 metrga katta bo'lishi kerak.

Hududga kirish yo'llari, xo'jalik inshootlari va chiqindi maydonchalarigacha yo'llar asfalt, beton yoki boshqa qattiq qoplamali bo'lishi kerak.

Yangi qurilayotgan umumiy o'rta ta'lim umumta'lim muassasalari hududida o'quvchilar, jumladan, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni tashish uchun mo'ljalangan avtotransport vositalari uchun maxsus to'xtash joylari ajratilishi kerak.

Maktab hududi tashqi sun'iy yoritish tizimiga ega bo'lishi kerak. Yer yuzasidagi yoritish darajasi kamida 10 lyuks bo'lishi shart.

Umumiy o'rta ta'lim umumta'lim muassasasi hududida shovqin darajasi turar joy binolari, jamoat binolari va turar joy hududlari uchun belgilangan gigiyenik normalardan oshmasligi kerak.



4-§. BINOLARNI ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARNI (SHAXSLAR) INOBATGA OLGAN HOLDA LOYIHALASHTIRISHDA SHAHARSOZLIK NORMALARI VA QOIDALARI

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari – inklyuziv shaklda ta'lim berish maktab-internatlari SHNQ 2.08.07 va SHNQ 2.07.02 talablariga muvofiq loyihalaniishi lozim⁴.

maxsus maktab-internatlarida:

kirish joylarida, foyeda, yo'laklarda, o'quv sinflarida, dam olish xonalarida, oshxonalarida va o'quvchilar tashrif buyuradigan joylarda videokuzatuv uskunalari;

ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun qo'shimcha yoritkichlar (doska tepasida, stol ustida, zinalar va yo'laklarda) o'rnatilishi, zinalarning perilasi va devorlarda yo'nalishni ko'rsatuvchi, shuningdek sinf va xonalarga kirish joy (eshik)larida «Brayl» shriftli (bo'rtma harfli) yozuv va belgilar;

nutqida va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga har bir o'quvchi uchun alohida stol ustida joylashgan zamonaviy ovoz kuchaytiruvchi apparati mavjudligi, o'quv fanlari bo'yicha audio-video materiallari mavjudligi, alohida korreksion xona foye koridorga tepa burchaklarga sensor lampalar joylash kerak;

tayanch-harakatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun:

binoga kirish qismida pondus bo'lishi kerak;

o'quvchilarning yuqori qavatlariga chiqib tushishlari uchun ko'tarish moslamalari (lift, eskalator, ko'targich (podyomnik) va sh.k.);

sport zalda davolovchi jismoniy-sog'lomlashtirish mashqlarini bajarish uchun jihozlangan burchak;

inklyuziv shaklda ta'lim berish maktab-internatlarida ta'lim berish muhiti korreksion uskunalar, ta'lim berish texnik vositalari va maxsus mebellar bilan jihozlanishi nazarda tutilishi lozim.

Inklyuziv ta'lim berish shakllari bo'lgan boshqa ta'lim tashkilotlari va muassasalarida maxsus SHNQ (3.11.3-bandida) talablarida nazarda tutilgan chora-tadbirlar loyiha topshiriqlariga muvofiq ko'zda tutilishi lozim.

O'quv xonasining 10 – 15 nafar o'quvchiga mo'ljallangan maydoni 36 m² dan, 15 – 30 nafar o'quvchiga mo'ljallangan maydoni 40 m² dan kam bo'lmasligi lozim.

O'quv-to'garak mashg'ulotlari va uzaytirilgan kun uchun universal xonalar, maktab-internatlarda o'yinlar uchun xonalar maydoni 30 m² dan kam bo'lmasligi kerak. Xonalar soni umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari va maktab-internatlarning

4 O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2021-yil 13-apreldagi "SHNQ 2.08.02-09 Jamoat binolari va inshootlari"dagi 82-sonli buyrug'i

sig'imidan kelib chiqib loyiha topshirig'i asosida qabul qilinadi.

Ko'zi ojizlarni yo'llardagi mavjud xavfli hududlarga (masalan, alohida turuvchi ustunlar, daraxtlar, zinalar, piyodalar o'tish joylariga) yaqinlashganligi to'g'risida ogohlantirish uchun yo'l qoplamalari taktil va kontrast rangli belgilarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, ko'zi ojizlar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassalarining ichki va tashqi harakatlanish yo'laklarida, shuningdek zinalar va panduslar oldida qulayliklar yaratish maqsadida ogohlantiruvchi va yo'naltiruvchi kontrast rangli maxsus taktil yo'l qoplamalari yotqizilishi lozim⁵.

Shuningdek quyidagilar bo'lishi tavsiya etiladi:

eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassalar binolari yaqinidagi shovqin darajasi 60 dB dan oshmasligi;

qurilish obyektlari atrofidagi trotuarlar kengligi 1,5 m dan kam bo'lmasligi, bino va inshootlar ichki yo'laklari, qarama-qarshi yo'nalishli yo'llarda o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxs harakatlanishi uchun yo'lining kengligi kamida 1,5 m bo'lishi;

trotuarlarning bo'ylama nishabligi 5 foizdan oshmasligi kerak. Bino va inshootlar oldidagi trotuardan tushish qismi, shuningdek trotuarlarning har 10-12 m oralig'ida joylashadigan (1,5 m dan kam bo'lmagan) gorizontaal maydoni 10 foiz bo'ylama nishablikda bo'lishi;

harakatlanish yo'lining ko'ndalang qiyaligini 1-2 foiz atrofida qabul qilish;

o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslar harakatlanishi uchun pandusning kengligi 1,0 m dan kam bo'lmasligi;

pandus har bir marshining ko'tarilish balandligi 0,8 m dan oshmasligi kerak.

Bunda, pandusning bo'ylama qiyaligi 1:12 nisbatda, ko'ndalang qiyaligi esa 1:50 nisbatda bo'lishi;

panduslar cheti 0,15 – 0,20 m balandlikdagi bortlarga va 0,7 – 0,9 m balandlikda tutqichlar (maktabgacha yoshdagi bolalar uchun 0,5 m)ga ega bo'lishi, tutqichlarning uzunligi pandus uzunligiga nisbatan 0,03 m uzunroq bo'lishi kerak. Tutqichning aylana diametri 0,04-0,05 m ni tashkil etishi;

har bir pandusning boshi va oxirida aravachaning qiyinchiliksiz burilishiga imkon beradigan, pandus kengligidan kam bo'lmagan va uzunligi kamida 1,5 m bo'lgan gorizontaal maydoncha loyihalanishi;

pandus yo'nalishi o'zgarsa, yo'nalish o'zgarishi bo'ylab maydonchani eni 1,5 m dan kam bo'lmasligi, umumiy gorizontaal maydonchani bo'yi esa ikkita marsh kengligiga teng bo'lishi lozim.

5 O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2022-yil 26-oktyabrda "SHNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari" 185-sonli buyrug'i

5-§. YONG'IN XAVFSIZILIGI TALABLARI

Umumta'lim muassasasi hududlari o'z vaqtida yonuvchi chiqindilar, axlatlar, qadoqlar, xazonlar, quruq o'tlar va boshqa yonuvchi buyumlardan tozalanishi kerak⁶.


Yonuvchi chiqindilar, axlatlar va shu kabi boshqa buyumlarni maxsus ajratilgan maydonlardagi yonmaydigan materialdan ishlangan konteynerlarga yoki qutilarga yig'ish va keyinchalik hududdan olib ketish lozim.

Bino va inshootlarning yong'inga qarshi oraliqlarida turli buyumlarni, asbob-uskunalarini, qadoqlarni va transport vositalarini saqlash hamda bino va inshootlarni qurish (o'rnatish) taqiqlanadi.

Hudud va xonalarning joylashtirilishi, binolarning olovga bardoshlilik darajasi, ularning orasidagi yong'inga qarshi masofalar, xonalardan chiqish eshiklari amaldagi shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi va yong'in xavfsizligi ta'minlangan holatda saqlanishi kerak.

Yong'inga qarshi suv manbalarini, tashqi yong'in narvonlarini, bino va inshootlarga kirish joylarini tezda topish uchun umumta'lim muassasasi hududi yetarli darajada tashqi yoritish chiroqlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Maktab hududidagi ochiq maydonlar ichida yengil alangalanuvchi va yonuvchi suyuqliklar bo'lgan idishlarni hamda siqilgan va suyultirilgan gaz bilan to'ldirilgan ballonlarni qoldirish taqiqlanadi(12-rasm).



12-rasm. Favqulodda chiqish yo'li va o't o'chirgichlarni joylashuvi

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yong'in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 20-oktyabrdagi 649-sonli qarorining 5-bobi

Yong'in paytida binoni tark etishning imkoni bo'lmaganda, binoning har bir qavatida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun jon saqlashi mumkin bo'lgan yong'in xavfsizligi hududlari loyihalashtirilishi kerak (13-rasm)⁷.

Yong'in xavfsizligi hududlarini H1 turiga mansub tutun kirmaydigan zinalar-ga o'tish maydonini yoki yong'inga qarshi KO sinfiga (yong'inga xavfli bo'lma-gan) mansub to'suvchi konstruksiyaga ega pandusli xonaga chiqish yo'llarini loyihalash lozim.

Yong'in xavfsizligi hudud boshqa xonalar va tutash yo'laklardan yong'in-ga qarshi to'siqlar bilan ajratilgan bo'lishi kerak, bunda olovbardoshlikning darajalari (REI, EI) quyidagicha bo'lishi lozim:

devorlar – REI 90;

to'siqlar – REI 60;

deraza va eshiklar – EI 60 ning 1-turi.

Yong'in xavfsizligi hudud tarkibiga lodjiya yoki balkonga tutash maydoncha (kengligi 1,5 m dan kam bo'lmagan) ham kiritilishi mumkin.

Yong'in xavfsizligi hududning konstruksiyalari yong'in xavfsizligining KO sinfiga muvofiq bo'lishi, pardoziy oqlash va qoplovchi materiallari esa SHNQ 2.01.02 talablariga mos kelishi kerak.

Yong'in xavfsizligi hududlarining eshiklari o'z-o'zidan zich yopiluvchi hamda tutun kirmaydigan bo'lishi kerak. Yong'in paytida bitta evakuatsiya eshigi ochiq bo'lganida ortiqcha 20 Ra bosim bo'lishi ta'minlanishi lozim.

Yong'in xavfsizligi hududlariga chiquvchi liftlar shaxtalarida QMQ 2.04.05 talablarini hisobga olgan holda, havo kirish ventilyatori o'rnatilishi kerak.

Yong'in xavfsizligi hududning maydoni qavatdagi nogironligi bo'lgan bo-lalar (shaxslar) sonini va bir nogironligi bo'lgan bolalar (shaxs)ga 2,5 - 2,85 m² (o'rindiqli aravachaning burila olishi va uni kuzatuvchi shaxsning sig'ishini ham) hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak.

Yong'in xavfsizligi hudud odamlarni evakuatsiya qilish uchun zarur bo'lgan moslamalarni (yong'in xavfsizligi hududdagi har 10 ta kishi uchun 2 ta evakuat-siya o'rindiqli aravachasi va evakuatsiya zambilini) o'rnatish uchun yetarli joyga ega bo'lishi va yong'in zinasi binoning tashqi qismida bo'lishi lozim.

7 O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2022-yil 26-oktyabrdagi "SHNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidolari" 185-sonli buyrug'i

Yong'in signalizatsiyasi boshqaruv paneli binoning chap tomonida joylashgan bo'lib, tizimning asosiy boshqaruv qismi hisoblanadi. Ushbu panel yong'in signalizatsiyasini yoqish, o'chirish va kelib tushgan signallarni qabul qilish vazifalarini bajaradi.

Favqulodda yong'in signalizatsiyasini faollashtirish tugmasi ("ручной вызов") binoning bir nechta strategik nuqtalarida o'rnatilgan bo'lib, favqulodda vaziyat yuzaga kelganda, qo'lda yong'in signalini ishga tushirish imkoniyatini beradi.

Audio yordam tizimi xavfli holatlarda xodimlarga yo'riqnomalar va zarur ma'lumotlarni ovozli xabarlar orqali yetkazish uchun mo'ljallangan.



6-§. BINOGA KIRISH (KIRAVERISH)

Binoga kirish (kiraverish) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, ayniqsa nogironlar aravasida harakatlanadigan yoki harakatlanishda qiyinchiliklarga duch keladigan o'quvchilar uchun maksimal darajada qulay va xavfsiz bo'lishi zarur.

Binoga kirish eshiklarining kengligi kamida 90 cm bo'lishi lozim, bu nogironlar aravasidagi bolalarning erkin va to'siqsiz kirishini ta'minlaydi. Agar eshik ikki nogironlar aravasi bir vaqtda harakatlanishi mumkin bo'lgan qilib loyihalashtirilsa, uning kengligi 180 cm bo'lishi tavsiya etiladi.

Shuningdek, kirish hududi silliq, sirpanchiq bo'lmagan qoplamali, eshik ostonalari esa aravachalarning bemalol o'tishini ta'minlaydigan past balandlikda bo'lishi kerak. Bu choralar barcha bolalar uchun to'siqsiz va qulay muhit yaratishga xizmat qiladi⁸ (14-rasm).



14-rasm. Binoga kirish (kiraverishi)ni loyihalash

1 - Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun maxsus tutqichli panduslar, bu aravachada harakatlanadigan yoki harakatlanishda qiyinchiliklarga duch keladigan o'quvchilarning binoga qulay va xavfsiz kirishini ta'minlaydi.

⁸ O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2022-yil 26-oktyabrdagi "SHNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari" 185-sonli buyrug'i

2 - Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan va ko'zi ojiz bolalar (shaxslar) uchun mo'ljallangan teksturalangan (taktil) yo'l belgilari, bu belgilar ularga mustaqil harakatlanishda yo'nalish topishda yordam beradi.

3 - Yordam chaqirish tugmasi, bu tugma nogironligi bo'lgan shaxslar uchun zarur hollarda yordam so'rash va binoga kirishda qo'shimcha qo'llab-quvvatlash olish imkoniyatini yaratadi.

4- Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan kirish eshiklari, bu eshiklar keng, nogironlar aravachasida harakatlanadigan o'quvchilar uchun qulay, shuningdek, avtomatik ochilib-yopilish va qo'shimcha funksiyalarga ega bo'lishi tavsiya etiladi. Ushbu eshiklar harakatlanishda qiyinchiliklarga duch keladigan bolalar uchun to'siqsiz va xavfsiz kirishni ta'minlashi lozim.

Binoga kirish eshiklari avtomatik tarzda ochilib-yopilishi tavsiya etiladi, bu esa nogironlar aravasidagi bolalarga yordamchi shaxslarsiz mustaqil ravishda kirish va chiqish imkonini beradi. Eshiklar sensor yoki tugma orqali ochiladigan bo'lishi kerak. Avtomatik eshiklarning sensorlari eshik oldidagi harakatni tez aniqlaydigan va bolalarning xavfsiz kirishini ta'minlaydigan darajada sezgir bo'lishi lozim.

Shuningdek, eshiklar avtomatik yopilish funksiyasiga ega bo'lsa ham, ular sekin yopilishi zarur. Eshikning yopilish tezligi bolalarga zarar yetkazmasligi uchun 3-5 soniya ichida yopiladigan qilib moslanishi kerak.

Agar eshiklar avtomatik bo'lmasa, tutqichlar bolalarning oson ochishlari uchun qulay joylashishi lozim. Tutqichlar poldan 85-100 cm balandlikda o'rnatilishi kerak va ular bolalarning turli yoshdagi bo'ylariga mos keladigan darajada joylashtirilishi lozim. Tutqichlar yengil ochiladigan, mustahkam va ergonomik shaklda bo'lishi tavsiya etiladi.

Binoga kirish eshiklarining poroglari (eshik tagi) juda past bo'lishi yoki umuman porogsiz qilib o'rnatilishi lozim. Porogning maksimal balandligi 2 cm dan oshmasligi kerak, bu nogironlar aravasidagi bolalarning kirishi uchun qulaylik yaratadi. Agar porog mavjud bo'lsa, yumshoq qo'shimchalar bilan qoplangan bo'lishi tavsiya etiladi.

Eshik oldidagi hudud yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. Yoritish darajasi kamida 200 -300 lyuks bo'lishi lozim, bu esa kirish eshigi oldida bolalarning xavfsiz va aniq harakatlanishiga imkon yaratadi.



7-§. PANDUSLAR

Panduslar tayanch-harakat apparat tizimida nuqsoni bo'lgan, ya'ni nogironlar aravasida harakatlanuvchi bolalar uchun juda muhim bo'lib, ularning xavfsiz va qulay harakatlanishini ta'minlash uchun loyihalashtirilishi shart.

Panduslarning barcha me'yorlari va o'lchovlari shaharsozlik normalari va qoidalari asosida qat'iy ravishda bajarilishi kerak. Bu talablar panduslarning qiyalik burchagi, kengligi, uzunligi, tutqichlarning mavjudligi hamda yuzasining sirpanchiq bo'lmasligi kabi muhim omillarni o'z ichiga oladi.


To'g'ri loyihalashtirilgan panduslar nogironlar aravasida harakatlanadigan bolalarga mustaqil va xavfsiz harakatlanish imkoniyatini yaratib, ularning maktab hududida erkin harakatlanishiga xizmat qiladi.


Piyodalar yo'lkasining gorizontallik qiyaliklari oralig'ida panduslar o'rnatilishi ko'zda tutilishi kerak.

Pandus va ularning to'siqlari yonmaydigan guruhga kiruvchi yong'inga chidamli materiallardan qurilgan bo'lishi kerak. Piyodalar yo'lkasining piyodalar o'tish joyi bilan uyg'unlashuvi shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq bo'lishi lozim.

O'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslar harakatlanishi uchun pandusning kengligi 100 cm dan kam bo'lmasligi kerak.

Pandus har bir marshining ko'tarilish balandligi 80 cm dan oshmasligi kerak. Bunda, pandusning bo'ylama qiyaligi 1:12 nisbatda, ko'ndalang qiyaligi esa 1:50 nisbatda bo'lishi kerak (15-rasm).





15-rasm. Zinaga o'rnatilgan pandusni loyihalash

Panduslar cheti 15 sm dan 20 cm gacha balandlikdagi bortlarga va 70 cm-dan 90 cm gacha balandlikda tutqichlar (maktabgacha yoshdagi bolalar uchun 50 cm)ga ega bo'lishi, tutqichlarning uzunligi pandus uzunligiga nisbatan 3 cm uzunroq bo'lishi kerak. Tutqichning aylana diametri 4 cm dan 5 cm gachani tashkil etishi lozim.

Har bir pandusning boshi va oxirida aravachaning qiyinchiliksiz burilishiga imkon beradigan, pandus kengligidan kam bo'lmagan va uzunligi kamida 150 cm bo'lgan gorizontaal maydoncha loyihalanishi lozim.

Pandus yo'nalishi o'zgarsa, yo'nalish o'zgarishi bo'ylab maydonchani eni 150 cm dan kam bo'lmasligi, umumiy gorizontaal maydonchani bo'yi esa ikkita marsh kengligiga teng bo'lishi kerak.

Oddiy pandus barpo etishning imkoni bo'lmagan favqulodda vaziyatlarda «Vintli» panduslar bunyod etilishiga ruxsat etiladi. «Vintli» panduslardagi gorizontaal maydonchalarning ichki radiusi 200 cm dan kam bo'lmasligi kerak.

Qiyaligi 8 foizdan oshmagan bir pandus marshining maksimal balandligi 80 cm dan oshmasligi kerak. Harakatlanish yo'llaridagi pollar balandligi 20 cm va undan kamroqqa pasayganda pandusning qiyaligi 10 foizga oshirilishiga yo'l qo'yiladi.

Vintli panduslardan istisno hollardagina foydalanishga ruxsat beriladi. Panduslarning kengligi 100 cm dan kam bo'lmasligi kerak.

Hassa yoki oyoq sirpanib ketishini oldini olish uchun pandus marshlarining chetlarida, shuningdek 45 sm dan ortiq balandlik qiyaligida va gorizontaal yuzaning chetlarida 15 - 20 cm balandlikdagi bortlarni nazarda tutish kerak.

Pandusni ko'tarib turuvchi konstruksiyalarning olovbardoshligi P60 dan kam bo'lmagan yonmaydigan guruhiga kiruvchi materiallardan ishlanishi kerak, shuningdek panduslarning to'siq konstruksiyalari olovbardoshligi P120 dan kam bo'lmasligi kerak.

Zina marshining tashqi tarafi, tutqichlarning yuqori yoki yon taraflarining yuzasiga qavatlarining relyefli belgilari (Brayl alifbosida) joylashtirilishi nazarda tutiladi (bunda raqamlar 1,5x1,0 cm, relyefning balandligi 20 cm dan kam bo'lmasligi kerak).





16-rasm. Konstruktorli (yig'iladigan) panduslar ko'rinishi.

Konstruktorli (yig'iladigan) panduslar – ko'tarilish balandligiga qarab, konstruktor panduslari bir necha bo'laklaridan tashkil topgan bo'lib, har bir bo'lakning tutash joyi aravachadagi bolalarni (shaxslar) harakatlanishi va burilishi uchun gorizontaal maydoncha o'rnatiladi. Texnik talablarga muvofiq, ko'tarilish maydonchasining polganisbatan qiyaligi 5% dan oshmasligi kerak, tutqichlar orasidagi masofa esa 90 cm bo'ladi. Tutqichlar yerdan 70 va 90 cm balandlikda o'rnatiladi, bu esa alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga o'zga shaxslarning yordamsiz, katta jismoniy kuch sarflamasdan yuqoriga ko'tarilishi uchun qulaylik yaratadi. (16-rasm).

8-§. TUTQICHLAR

Tutqichlar nogironlar aravasida harakatlanuvchi yoki harakatlanishda qiyinchiliklarga duch keladigan bolalar (shaxslar) uchun yordam vazifasini bajaradi (17-rasm).

Tutqichlarning standart balandligi poldan 70 cm dan 90 cm gacha bo'lishi kerak. Bu balandlik bolalarning yoshi, bo'yi va harakatlanish imkoniyatlariga mos kelishi uchun tanlanadi. Har ikki tomonda ham tutqichlar ikki qo'l bilan qulay ushlash mumkin bo'lgan balandlikda o'rnatilishi lozim.

Tutqichlar butun pandus uzunligi bo'ylab uzluksiz o'rnatilishi talab etiladi. Bolalarning qo'li bilan qulay ushlash imkoniyatini yaratish uchun tutqichlarning diametri 3 cm dan 5 cm gacha bo'lishi, mustahkam va har qanday iqlim sharoitiga mos keladigan materialdan tayyorlanishi zarur. Tutqichlar pandus devori yoki boshqa to'siqlardan kamida 5 cm masofada joylashtirilishi lozim, bu esa bolalarning qo'llarini erkin harakatlantirishini ta'minlaydi (17-rasm).

Tutqichlar mustahkam va og'irlikni ko'tara oladigan qilib o'rnatilishi zarur. Ular bolalarning qo'llari sirg'anib ketmasligi, shuningdek, bolalarning vazni yoki aravasining bosimini ko'tara oladigan darajada bardoshli bo'lishi kerak (18-rasm). Hatto kuchli bosimga ham chidamli bo'lishi shart.

Shuningdek, tutqichlarning atrofi sun'iy yoritish tizimi bilan ta'minlangan bo'lishi lozim, bu esa kechasi yoki yorug'lik kam bo'lgan joylarda xavfsiz harakatlanish imkoniyatini yaratadi.


Balandligi 0,45 m bo'lgan zinalar, panduslar, qiyaliklarda ikki tarafdan tutqichli to'siqlar o'rnatilishi kerak. Panduslarning tutqichi 0,7 - 0,9 m balandlikda, zinaning tutqichi 0,9 m balandlikda (maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 0,5 m balandlikda) bo'lishi nazarda tutiladi (19-rasm)⁹.

Tutqichlar zinapoyaning ichki tarafidan butun uzunlik bo'ylab yaxlit bo'lishi kerak. Tutqichning yakunlovchi qismi marsh yoki pandus qiyaligidan 0,3 m ga uzunroq bo'lishi kerak.




17-rasm. Nogironlar aravasida harakatlanuvchi yoki harakatlanishda qiyinchiliklari bo'lgan bolalar (shaxslar) turli tutqichlar

⁹ O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2022-yil 26-oktyabrdagi "SHNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari" 185-sonli buyrug'i 50-bandlar



18-rasm. Tutqichlarning o'lchamlari



19-rasm. Panduslar o'rnatilgan tutqichlarni o'lchami.

9-§. KO'ZI OJIZ BOLALAR UCHUN TAKTIL AXBOROT KO'RSATKICHLAR

Taktil ko'rsatkichlar ko'rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun atrof-muhitni anglash, yo'nalishni aniqlash va mustaqil harakatlanish imkonini beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar bolalarga jamoat joylarida xavfsiz harakatlanish va yo'nalishni aniqlash uchun katta yordam beradi.

Taktil ko'rsatkichlar maktab hududida yo'nalishlarni sezish va aniqlash imkoniyatini yaratib, bolalarga atrof-muhit bilan mustaqil harakatlanish va muvofiqlash imkonini beradi. Brayl yozuvi bilan ishlangan belgilar, relyefli (taktil) izlar va maxsus yo'l ko'rsatkichlari bolalarga o'z joylashuvini aniqlash va qaysi yo'nalishda harakatlanishi kerakligini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.

Taktil ko'rsatkichlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

Brayl yozuvi bilan ishlangan belgilar – maktab hududida muhim joylar ning (kirish eshiklari, sinfxonalar, hojatxonalar va boshqa obyektlar) nomlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Relyefli (taktil) yo'l izlari – ko'rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun xavfsiz harakatlanish yo'nalishlarini belgilaydi.

Maxsus taktil yo'l ko'rsatkichlari – muayyan hududlarda yo'nalishni ko'rsatib, mustaqil harakatlanishni osonlashtiradi.

Ushbu elementlar ko'rish qobiliyati cheklangan bolalarga mustaqil va xavfsiz harakatlanish imkoniyatini yaratib, ularning atrof-muhitni yaxshiroq anglash va ijtimoiy faolligini oshirish imkonini beradi¹⁰.

Taktil mnemosxemalar – bu ko'rish qobiliyati cheklangan yoki ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun maktab hududi yoki binoning ichki tuzilishini tushunish va unda harakatlanishga yordam beradigan maxsus relyefli (taktil) sxema hisoblanadi.

Bunday sxemalar Brayl yozuvlari va ko'tarilgan (relyefli) elementlardan iborat bo'lib, foydalanuvchilarga qo'llari bilan his qilish orqali ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Ushbu taktil sxemalar maktab hududida muhim joylarni aniqlash, yo'nalishlarni tushunish va xavfsiz harakatlanishni ta'minlash uchun mo'ljallangan (20-rasm).



20-rasm. Turli hududlar uchun mo'ljallangan taktil mnemosxemalar

¹⁰ ТифлоСентр "Оборудование Адаптатсии и доступная среда сифровой портал" Масква 2020 г.;

Taktil tablichkalar (peshlavhalar)- ko'rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun maktablardagi turli ma'lumotlarni anglashni osonlashtirish maqsadida taktil peshlavhalardan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu peshlavhalardagi yozuvlar Brayl alifbosida yozilgan bo'lib, bolalar (shaxslar) qo'llari bilan sezish orqali kerakli ma'lumotlarni olishlari mumkin. Taktil peshlavhalar yassi-relyefli peshlavhalar, stol ustiga qo'yiladigan peshlavhalar va ma'lumot o'zgartirilishi mumkin bo'lgan taktil yozuvlar turiga bo'linadi. Ular maktab muhitida ko'rish qobiliyati cheklangan bolalarga mustaqil harakatlanish va kerakli ma'lumotlarni o'qish imkoniyatini yaratadi (21-rasm).



Taktil ko'rsatkich



Flagsimon devorga o'rnatiladigan ko'rsatkichlar



Taktil-ovozli yozuvlar



Taktil yozuvli peshlavhalar

21-rasm. Turli taktil peshlavhalar

Taktil ko'rsatkichlar - ko'zi ojiz bolalar uchun maktab hududida harakatlanishni yengillashtirish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar qo'llar yordamida seziladigan bo'lib, maxsus yozuvlar va belgilar bilan ifodalangan. Ushbu ko'rsatkichlar xonalarning nomlari, yo'nalishlar va harakatlanish bo'yicha zarur ma'lumotlarni taqdim etib, bolalarga mustaqil harakatlanish imkonini yaratadi.

Flagsimon devorga o'rnatiladigan ko'rsatkichlar - bu ko'rsatkichlar devorga o'rnatilib, yo'nalish joyining qaysi tarafda joylashganini ko'rsatadi. Ular maktab hududida bolalarga qo'llari bilan topib olishlari uchun yordam beradi. Masalan, sinfxona, oshxona yoki hojatxonaning qaysi yo'nalishda ekanligini belgilar orqali tushunish imkoniyatini yaratadi.

Taktil-ovozli yozuvlar - bu yozuvlar qo'llar bilan seziladigan belgilar va ovozli ma'lumotlardan tashkil topgan bo'lib, bolalar matnni sezish bilan birga, ovoz orqali ham qaysi xonaning oldidan o'tayotganini aniqlashlari mumkin. Ushbu yozuvlar transport vositalarida yoki maktabning muhim joylarida joylashtirilib, bolalarga mustaqil harakatlanishda yordam beradi.

Taktil yozuvli lavhalar - maktabning turli joylariga, masalan, sinfxonalar yoki sport zallari oldiga o'rnatiladi. Ushbu lavhalardagi yozuvlar Brayl alifbosida bo'lib, bolalar ularni qo'llari bilan sezib o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Taktil plitkalar - ko'rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus yo'laklar yoki joylarni belgilashda qo'llaniladi. Masalan, maktabning kirish qismida yoki zinapoyalarda taktil plitkalar o'rnatilib, bolalar qo'llari yoki oyoqlari bilan sezib yo'nalishni aniqlashlari mumkin. Ushbu plitkalar turli materiallardan, jumladan, beton, keramika, metall yoki yog'ochdan tayyorlanishi mumkin.

Taktil indikatorlar - bolalarga qaysi yo'nalishda harakat qilish kerakligini va yo'ldagi xavf-xatarlar haqida ogohlantiradigan maxsus belgilardir. Ular yo'nalishni ko'rsatish uchun turli shakldagi geometrik figuralar yoki chiziqlar ko'rinishida bo'ladi. Masalan, maktab hovlisi yoki sinfxonalarga boradigan yo'laklarga o'rnatilishi mumkin.

Taktil lentalar - bolalarning harakat yo'llarini belgilash uchun ishlatiladigan maxsus elementlardir. Ular bolalarga yo'ldagi to'siqlar, burilishlar yoki yo'nalish o'zgarishlari haqida ogohlantirib, xavfsizlikni ta'minlaydi.

Shus-satri - maktab hovlisi yoki zinapoya oldidagi xavfli joylarni belgilash uchun maxsus ishlab chiqilgan relyefli belgi hisoblanadi. U bolalarni xavfli joylardan ogohlantirib, ularning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi (22-rasm).



Taktil plitkalar



Taktil indikatorlar



Taktil lentalar



Shus-satri

22-rasm. Taktil va vizual belgilar

II.BOB. UMUMTA'LIM MUASSASALARI BINOSINING FOYE, YO'LAKLAR, KUTUBXONA, OSHXONA, MA'MURIY-METODIK VA BOSHQA MAXSUS PEDAGOG XIZMAT XONALARIDA BOLALAR UCHUN QULAY VA XAVFSIZ MUHIT YARATISH BO'YICHA TAVSIYALAR

1-§. BINONING FOYE VA YO'LAKLARI

Binoning foyesi davlat ramzlari va ta'lim-tarbiyaga oid axborotlar bilan ta'minlanishi tavsiya etiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining portreti, shuningdek, Prezidentning ta'lim va tarbiya haqidagi fikrlari hamda davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) aks etgan stendlar joylashtirilishi maqsadga muvofiq. Ushbu axborotlar davlat tilida yozilishi, ta'lim turiga qarab esa rus yoki qardosh tillarda ham berilishi mumkin.

Binodagi yo'laklar va zinapoyalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning erkin va mustahkam harakatlanishlari uchun xavfsiz va qulay tarzda tashkil etilishi kerak. Ta'lim va tarbiya jarayonini aks ettiruvchi turli mashg'ulotlarga oid chizmalar, shakllar va infografikalar joylashtirilgan stendlar o'rnatilishi tavsiya etiladi. Ushbu stendlar boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilariga, shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga moslashtirilgan bo'lishi lozim.

Zinapoya va yo'laklarda bolalarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida mustahkam tutqichlar o'rnatilishi lozim. Shuningdek, foyening hajmiga qarab, ota-onalar va mehmonlar uchun kutish joylari tashkil etilishi tavsiya etiladi. Ushbu joylar quyidagi elementlar bilan jihozlanishi lozim:

- maktabga tashrif buyuruvchi ota-onalar va mehmonlar uchun qulay o'rindiqlar joylashtirilishi va ular bolalarning harakatlanishiga to'sqinlik qilmaydigan xavfsiz joylarga o'rnatilishi;

- ota-onalar va mehmonlar uchun maktabga oid axborot stendlari joylashtirilib, ushbu ma'lumotlar ko'rish va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tushunarli bo'lishi uchun taktil yozuvlar yoki audio materiallardan foydalanilishi;

- foyeda suv dispanserlari joylashtirilib, ular bolalar tomonidan erkin va xavfsiz foydalanish uchun qulay joylarda o'rnatilishi;

- ota-onalar va mehmonlar uchun kutish davomida o'qishlari uchun jurnallar va bolalar ta'limiga oid kitoblar joylashtirilgan javonlar tashkil etilishi;

- tabiiy muhit yaratish va bolalar uchun qulay psixologik sharoit ta'minlash maqsadida foye hududida yashil burchaklar tashkil qilinishi;

- wi-fi hududlari va elektron qurilmalar uchun zaryadlovchi stansiyalar tashkil etilishi;



- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maxsus moslashtirilgan o'yin burchagi tashkil qilinishi hamda ushbu burchak xavfsiz o'yin qurilmalari, past o'rindiqlar va mos stollar bilan jihozlanishi;

- yo'laklarda bolalar uchun ergonomik o'rindiqlar o'rnatilishi va ular bolalarning dam olishi uchun qulay, harakatlanishga to'siq bo'lmaydigan tarzda joylashtirilishi;

yuqori sinf o'quvchilari uchun shaxsiy buyumlarini saqlashga mo'ljallangan javonlar yo'laklarda, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun esa shaxsiy javonlar sinf xonalarida tashkil etilishi;

ushbu elementlarning barchasi maktab hududida qulay, xavfsiz va funksional muhit yaratish hamda bolalar, ota-onalar va mehmonlarning ehtiyojlarini ta'minlash;

ko'rish yoki eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun maktabda taktil belgilar va audio ma'lumotlar joriy qilinishi lozim. Bu yordamchi vositalar bolalarning maktab ichida xavfsiz va mustaqil harakatlanishlariga ko'mak beradi (23-rasm).



23-rasm. Yo'laklar va zinalarda ko'rish yoki eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun umumta'lim muassasasida taktil belgilar va audio ma'lumotlar joriy qilinishi

Binoning vestibyullari, xollar, foye va yo'laklari ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun telefon avtomatlari, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun esa tekstofon kabi tovushli informatorlar bilan jihozlanishi lozim. Ushbu moslamalar o'quvchilarning maktab hududida mustaqil muloqot qilish


va zarur axborotni olish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, ular favqulodda holatlarda aloqaga chiqish va maktab ichki yo'nalishlarini tushunishda qo'shimcha qulaylik beradi (24-rasm) ¹¹.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ko'rinib turuvchi ko'rsatkichlar va yoritish signalizatsiyalarida ma'lumotlar takrorlanuvchi uskunalar o'rnatilishi tavsiya etiladi. Bu choralar axborotning vizual shaklda tushunarli yetkazilishini ta'minlash va favqulodda vaziyatlarda o'quvchilarning xabardor bo'lish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) tashrif buyuradigan xonalarda vizual, tovushli va taktil ma'lumotlar taqdim etilishi lozim. Bu usullar orqali bolalar maktab hududi va yo'nalishlarini mustaqil aniqlash, kerakli joylarni topish va xavfsiz harakatlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) kirishi mumkin bo'lgan hudud va xonalar, shuningdek kirish joylari va harakatlanish yo'llarida axborotning uzluksizligi ta'minlanishi, shuningdek, tashrif obyektni yoki joyni aniq identifikatsiya qilish imkoniyati yaratilishi lozim (25-rasm).

Shuningdek, axborot vositalari favqulodda vaziyatlarda xavf-xatar haqida tezkor xabar berish xizmatlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Bu tizimlar ogohlantirish signallari, vizual e'lonlar va ovozli xabarnomalar orqali barcha bolalarga tezkor axborot yetkazish imkonini yaratadi.



24-rasm. Bino yo'laklarida qulay muhit yaratish

¹¹ O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2022-yil 26-oktyabrdagi "SHNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari" 185-sonli buyrug'i 98,99,100-bandlar

1. "Qulay kirish" tizimi – tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun kirish imkonini ta'minlaydigan avtomatik ravishda ochiladigan eshiklar.

2. Shishali eshiklarga kontrastli belgilash – ko'rish qobiliyati past va kognitiv cheklovlari bor shaxslar uchun eshik hududini oson aniqlash imkonini beradi.

3. Eshik hududining kontrastli belgilash – ko'rish qobiliyati past va kognitiv cheklovlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun eshik hududini oson aniqlash imkonini yaratadi.

4. Taktil piktogrammalar "Evakuatsiya yo'nalishi" – evakuatsiya chiqish yo'lini oson aniqlash uchun yo'nalish belgilarini ta'minlaydi.

5. Vizual-akustik tablo (tizimi) – ma'lumotlarni vizual va akustik usulda uzatish uchun mo'ljallangan bo'lib, bu tizim ko'rish va eshitish qobiliyati cheklangan bolalar (shaxslar)ga axborot berish uchun ishlatiladi. Shuningdek, ushbu tizim obyektida favqulodda vaziyat (yong'in, evakuatsiya) yuz berganda barchaga zarur formatda xabar berish uchun ham qo'llaniladi.

6. Taktil piktogramma "axborot"lar – barcha toifadagi insonlar uchun axborot olish mumkin bo'lgan joyni ko'rsatadi.

7. Devorga o'rnatiladigan induksion axborot tizimi – eshitish qurilmalariga ega bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun simli tarmoqlar orqali uzatiladigan ma'lumot va favqulodda vaziyatlar haqidagi ma'lumot berish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

9. Eshik oldidagi taktil ogohlantiruvchi belgilar – ko'zi ojiz bolalar (shaxslar)ni eshikni aniqlash uchun xavfsiz harakatlanishni ta'minlash.

10. Xona yuzasini kontrastli bezash – ko'rish qobiliyati bo'lgan past insonlar uchun yuzalar va buyumlarni oson aniqlashni ta'minlaydi.


11. Eshik yopilishini kechiktiruvchi qurilma.

12. To'siq oldidagi taktil ogohlantiruvchi belgilar – to'siqlarni aniqlash va ko'zi ojiz bolalar (shaxslar) uchun xavfsiz harakatlanishni ta'minlash.

13. Devorga o'rnatiladigan tayanch tutqichlar – ko'zi ojizlar uchun yo'nalish aniqlash uchun taktil ma'lumot qo'llanilgan tayanch element.

14. Xona nomi yozilgan peshlavhalar- binoda har bir xona oldiga uning nomi yozilgan peshlavhalar o'rnatilib, ular Brayl alifbosida ham berilishi tavsiya etiladi¹².

¹² ТифлоСентр "Оборудование Адаптатсии и доступная среда цифровой портал "
Москва 2020 г




25-rasm. Bino foyesini loyihalash uchun uslubiy tavsiyalar

1. Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish joyi (reception);
2. Axborot paneli;
3. Axborot "Место для ввода текста" terminali;
4. Taktil-ovozli mnemosxema;
5. Shishali eshiklarning kontrastli belgilari;
7. Devorga o'rnatiladigan tayanch tutqichlar;
9. Induksion halqa;
11. Taktil ogohlantiruvchi belgi - "Diqqat hudud";
12. Xonani kontrastli bezatish;
13. Taktil ogohlantiruvchi belgi - "Xizmat ko'rsatish hudud";
14. Taktil yo'naltiruvchi belgi - xavfsiz harakatlanish yo'li;
15. Eshik oldidagi taktil ogohlantiruvchi belgi;
16. Mnemosxema oldidagi ogohlantiruvchi kontrastli belgi;
17. Shishali eshiklarning kontrastli belgilari;
18. Eshik yopilishini kechiktiruvchi qurilma;
19. Eshik o'lchamlarining kontrastli belgilashi;
20. Taktil axborot peshlavhasi;
21. Ergonomik tutqich;
22. "Qulay kirish" tizimi;
23. Xona nomi peshlavhasi.


2-§. BINO YO'LAKLARDA QULAY MUHIT YARATISHGA DOIR TAVSIYALAR

Bino yo'laklari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maksimal darajada qulay, xavfsiz va SHNQ me'yorlariga mos ravishda loyihalashtirilishi kerak. Yo'laklarning kengligi va yurish yo'llari nogironlar aravachasi, tayanch-harakat tizimi nuqsoni bo'lgan bolalar hamda ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun to'siqsiz harakatlanish imkoniyatini ta'minlashi lozim. Shuningdek, yo'laklar sirpanchiq bo'lmagan qoplamalar bilan qoplanishi va yo'nalish bo'ylab taktil belgilar, tutqichlar hamda yoritish tizimlari bilan jihozlanishi tavsiya etiladi.

Bino ichidagi yo'laklarning minimal kengligi 150 cm dan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi. Ushbu kenglik nogironlar aravasida harakatlanuvchi bolalar uchun to'siqsiz harakatlanish imkoniyatini ta'minlaydi. Agar yo'laklarda ikkita nogironlar aravasi qarshiliksiz o'tishi lozim bo'lsa, yo'lak kengligi kamida 200 cm bo'lishi talab etiladi (26-rasm).



Qarshidan harakatlanayotgan nogironlar uchun yo'lakning kengligi kamida 2 metr bo'lishi kerak¹³



Yo'lakning kengligi 1,2 metrga tushirilgan joylarda, har 25 metrda o'lchami 1,8-2 metr bo'lgan gorizontal maydonlar yaratiladi¹⁴

26-rasm. Bino ichidagi yo'laklarni o'lchami

Yo'laklar to'liq ravishda to'siqlardan xoli bo'lishi zarur. Harakatlanish yo'nalishida hech qanday ortiqcha jihozlar yoki to'siqlar joylashmasligi lozim, bu esa bolalarga erkin va xavfsiz harakatlanish imkonini yaratadi.

Ko'rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun yo'laklarda taktil plitkalar o'rnatilishi tavsiya etiladi. Ushbu plitkalar yo'nalishni belgilash va to'siqlarni oldindan aniqlash uchun xizmat qiladi.

Yo'laklardagi turli hududlar o'rtasidagi eshik va yo'llarda hech qanday baland yoki past bo'rtmalar bo'lmasligi kerak. Bu barcha bolalarning, ayniqsa, nogironlar aravachasi yoki tayanch-harakat tizimi nuqsoni bo'lgan bolalarning uzluksiz va qulay harakatlanishini ta'minlaydi.

Sensor buzilishlari bo'lgan bolalar, ayniqsa ovozga sezgir yoki yorug'lik ta'siriga nisbatan sezgirlik yuqori bo'lgan bolalar, o'ta yaltiroq yoki o'tkir yorug'likdan

¹³ Доступная среда для инвалидов - Волгоград, г.2017 18;

¹⁴ Доступная среда для инвалидов - Волгоград, г.2017 19;

qochishga moyil bo'ladilar. Shu sababli, bunday bolalar uchun ko'zni jarohatlamaydigan, sovuq rangdagi yoritish vositalari o'rnatilishi tavsiya etiladi. Optimal yoritish 5000K-6500K diapazonda bo'lishi lozim, chunki bu diapazon ko'zni kam charchatib, qulay ko'rish sharoitini yaratadi.

Shuningdek, maktab hududida avtomatik sensorli chiroqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu chiroqlar atrof-muhitga mos ravishda yoritish darajasini tartibga solib, ortiqcha yorug'lik ta'sirining oldini olishga yordam beradi. Bu yondashuv sensor sezgirliги yuqori bolalar uchun yanada qulay muhit yaratish va ularning ta'lim jarayonida ishtirokini yaxshilashga xizmat qiladi

3-§. BINODAGI ZINALAR

Binodagi zinapoyalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun xavfsiz va qulay qilib loyihalashtirilishi lozim. Ushbu zinapoyalar ko'zi ojiz va tayanch-harakat apparat tizimida nuqsoni bo'lgan bolalarning erkin va xavfsiz harakatlanishlarini ta'minlash maqsadida maxsus talablarga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Relyef qiyaliklarida ochiq zinalar kengligi 160 cm, undagi zina pog'onalari kengligi 0,4 m dan kam bo'lmasligi, zina pog'onalari balandligi 12 cm dan oshmasligi kerak¹⁵.

Bir zina marshida zina pog'onalari soni 3 tadan kam bo'lmasligi lozim. Balandlik bundan past bo'lsa, panduslar qo'llanilishi kerak.

Bir marshdagi zina pog'onalarining shakli, ularning kengligi va balandligi bir xil bo'lishi kerak. Zinalarning ko'ndalang qiyaligi 1-2 foiz bo'lishi kerak.

Harakatlanish xavfsizligini ta'minlash uchun zina qoplamasi g'adir-budir bo'lishi lozim, shuningdek zina qoplamasi tekis tarashlangan toshdan, sirpanchiq qilib ishlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Zinalarga maxsus kontrast bo'yoqlar qo'llanilishi, shuningdek zina pog'onalari kechki vaqt yoritilishi mumkin.

Zinalarning ochiq tomonlari 15 cm dan 20 cm gacha balandlikda bortlarga va 70 cm dan 90 cm gacha balandlikda tutqichlarga (maktabgacha yoshdagi bolalar uchun 50 cm balandlikda) ega bo'lishi kerak. Tutqichning uzunligi zina marshiga nisbatan 0,03 m uzunroq bo'lishi kerak. Tutqichlar to'g'ri to'rtburchak yoki dumaloq shaklda (5 cm -4 cm diametrda) o'rnatiladi.

Eni 250 cm dan keng bo'lgan zinalar uzunasiga tutqichlar bilan bo'linishi kerak.


Zina ostidagi bo'shliq 200 cm va undan kam bo'lganida, 70 cm balandlikdagi to'siq bilan chegaralanishi kerak.

Ko'zi ojizlar uchun binolarning kirish qismidagi, binolar ichidagi, ko'chalaridagi (masalan, yer osti yo'llaridagi) zina tutqichlarining boshlanish va tugash qismida manzil joylashuvi, bekat nomi va qavat raqami kabi ma'lumotlar keltirilgan Brayl alifbosidagi taktil yozuvlar bo'lishi kerak.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2022-yil 26-oktyabrdagi "SHNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari" 185-sonli buyrug'i 15,16-bandlar

Tutqichlardagi yozuvlar va ko'rsatkichlar 3 satrdan oshmasligi lozim. Agar panjara-tutqichlari oval shaklida bo'lsa, yozuv faqat bir qatorda joylashgan bo'lishi kerak.

Harakatlanish yo'llarida zinalar bilan bir qatorda panduslar ham qo'llanilishi kerak. Binolarning ichki va tashqi qismida, ko'chalarda, yer osti va yer usti o'tish joylarida lift va pandus bo'lmagan holatlarda o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslarning zinalardan foydalanishi uchun maxsus ko'taruvchi moslamalar o'rnatilishi lozim.



27-rasm. Umumta'lim muassasasi binolaridagi zinapoyalarni loyihalash

Binodagi zinapoyalarni loyihalashtirishda quyidagicha bo'lishi mumkin (27-rasm):

Evakuatsiya yo'nalishi uchun taktil belgilar - evakuatsiya chiqish yo'lini tez va oson topish uchun joylashtirilgan taktil belgilar ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati past bolalarning xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydi. Ushbu belgilar evakuatsiya yo'lidagi yo'nalishni aniq ko'rsatib, bolalarga xavfsiz va tezroq chiqish imkoniyatini yaratish maqsadida o'rnatiladi.

Devorga o'rnatilgan tayanch tutqichlar - zinapoya bo'ylab joylashtirilgan ushbu tutqichlar harakatlanishda qo'llab-quvvatlovchi element bo'lib, ko'zi ojiz yoki tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan bolalarga yo'nalishni topishda yordam beradi. Ushbu tutqichlar taktil belgilar bilan jihozlangan bo'lishi kerak,

bu esa bolalarga mustaqil va xavfsiz harakatlanish imkonini beradi.

Zinapoya qadamlarining kontrastli belgilari – zinapoyalar ko'rish qobiliyati past bolalar uchun kontrastli ranglar bilan belgilanishi zarur. Ushbu belgilar bolalarga qadamlarni aniq ko'rish va aniqlashga yordam beradi, shu bilan birga ularning xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydi. Zinapoyalarda sirpanishga qarshi qoplamalar bo'lishi ham majburiydir.

Yerga o'rnatilgan taktil va kontrastli belgilar – ushbu belgilar ko'zi ojiz bolalarni zinapoya yaqinlashgani haqida ogohlantiradi, ularning xavfsiz harakatlanishiga ko'maklashadi va yo'nalishni aniq belgilashga yordam beradi.

Zinapoya marshi va qadamlarining o'lchamlari – zinapoya bosqichlari SHNQ talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Ularning kengligi va balandligi bolalarning harakatlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda loyihalashtirilishi lozim. Sirpanishga qarshi qoplamalar va aniq belgilangan qadam o'lchamlari bolalarning xavfsiz yurishini ta'minlaydi.

Tayanch tutqichlar – zinapoya bo'ylab o'rnatilgan tutqichlar harakatlanishda qo'llab-quvvatlash va yo'nalish ko'rsatish vazifasini bajaradi. Ular bolalarning xavfsizligi uchun qulay, mustahkam va ergonomik shaklda ishlab chiqilishi lozim.

Taktil-kontrastli qoplamalar – tutqichlarga maxsus taktil-kontrastli qoplamalar o'rnatilishi yoki belgilangan belgilar joylashtirilishi kerak. Ushbu qoplamalar ko'rish qobiliyati cheklangan bolalarga yo'nalishni aniq topishda yordam beradi va ularning xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydi.

Mobil ko'targich saqlash va zaryadlovchi stansiya – tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus mobil ko'targichlar saqlash va zaryadlash stansiyalari tashkil etilishi zarur. Ushbu stansiyalar nogironligi bo'lgan bolalarning bino ichida to'siqlarsiz va mustaqil harakatlanishlarini ta'minlashga xizmat qiladi

1. Evakuatsiya yo'nalishi uchun taktil belgilar- evakuatsiya chiqish yo'lini oson topish uchun joylashtirilgan taktil belgilar ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati past bolalarning xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydi. Bunday belgilar evakuatsiya yo'lidagi yo'nalishni aniq ko'rsatish va bolalarga tezroq chiqish imkonini berish maqsadida o'rnatiladi.

2. Devorga o'rnatilgan tayanch tutqichlar- zinapoya bo'ylab o'rnatilgan tayanch tutqichlar harakatlanishda qo'llab-quvvatlovchi element bo'lib, ko'zi ojiz yoki tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan bolalarga yo'nalishni topishda yordam beradi. Bu tutqichlar taktil belgilar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak, bu esa bolalarga harakatlanishda qo'shimcha yordam beradi.

3. Zinapoya zinalarining kontrastli belgilari – zinalar kontrastli ranglar bilan belgilanishi zarur. Bunday belgilar ko'rish qobiliyati past bolalarga zinalarni oson aniqlashga yordam beradi va ularning xavfsiz harakatlanishlarini ta'minlaydi. Zinalar sirpanishga qarshi qoplama bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

4. Yerga o'rnatilgan taktil va kontrastli belgilar – bu belgilar ko'zi ojiz bolalarga zinapoyaning borligini ogohlantirib, ularning xavfsizligiga ko'maklashadi.

5. Zinapoya marshi va qadamlarining o'lchamlari - zinapoya zinalari SHNQ talablariga muvofiq bo'lishi, ularning kengligi va balandligi bolalarning harakatlanish imkoniyatlarini e'tiborga olinishi lozim bo'ladi. Sirpanishga qarshi qoplamalar va zinalarning o'lchamlari bolalarga xavfsiz qadam tashlashga yordam beradi.

6. Tayanch tutqichlar – zinapoya marshi bo'ylab o'rnatilgan tayanch tutqichlar harakatlanishda qo'llab-quvvatlovchi va yo'l ko'rsatuvchi vazifasini bajaradi. Bu tutqichlar bolalarning xavfsizligini ta'minlash uchun qulay va mustahkam qilib ishlangan bo'lishi zarur.

7. Taktil-kontrastli qoplamalar – tutqichlarga taktil-kontrastli qoplamalar o'rnatilishi yoki belgilar qo'yilishi lozim. Bu qoplamalar ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarga yo'nalishni aniqlashda yordam beradi va ularning xavfsiz harakatlanishlarini ta'minlaydi.

8. Mobil ko'targich saqlash va zaryadlovchi stansiya – tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus mobil ko'targichlar saqlash va ularni zaryadlash uchun stansiyalar o'rnatilishi kerak. Bu stansiyalar nogiron bolalarning bino ichida to'siqsiz harakatlanishlarini ta'minlaydi¹⁶.

¹⁶ ТифлоСентр “Оборудование Адаптатсии и доступная среда сифровой портал” Москва 2020 г.

4-§. OSHXONADAGI TO'SIQSIZ QULAY MUHIT

Oshxonalarini alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirishda sanitariya-gigiyena, texnika va yong'in xavfsizligi talablari-ga rioya qilgan holda jihozlash tavsiya etiladi.

Oshxonada to'siqsiz harakatlanish uchun bolalarga uchun keng yo'laklar tashkil etilishi hamda yo'laklar nogironlar aravasida erkin harakatlanish imkonini beradigan qilib moslashtirilishi kerak. Har qanday qo'shimcha to'siqlar, ayniqsa, bolalarning harakatini cheklashi mumkin bo'lgan jihozlar yoki to'siqlar bo'lmasligi hamda barcha mebel va uskunalar oson yetib borish mumkin bo'lgan tarzda joylashtirilishi lozim, bu bolalarning mustaqil ravishda xizmatdan foydalanishlarini ta'minlashiga yordam beradi.

Bufet zali kamida 20 m^2 maydonga ega bo'lishi kerak, yordamchi xona esa kamida 6 m^2 bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, bufetda idish-tovoq yuvish joyi, elektr plita va muzlatgichlar bo'lishi tavsiya etiladi.

Nogironlar aravasidan harakatlanuvchi bolalar uchun maxsus moslashtirilgan stollar tashkil qilinishi, va jihozlar bolalarning ehtiyojlariga moslashtirilib, ularning mustaqil harakatlanishlari va xizmatlardan bimalol foydalanishlarini osonlashtirishi kerak.

Idish-tovoq va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun maxsus javonlar tashkil etilishi zarur. Shuningdek, oshxonada mahsulotlar saqlanadigan omborxonalar havo harorati va nisbiy namlikni o'lchash uchun termometrlar va sovitish uskunalari (konditsioner) bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

Ko'zi ojiz bolalar uchun oshxonada taktil yo'llar va yo'nalishlar ko'rsa-tuvchi belgilar o'rnatilishi kerak. Shuningdek, vizual cheklovlari bor bolalar uchun oshxonada belgilar katta va kontrast shriftlarda bo'lishi tavsiya etiladi. Kontrast ranglardan (oq va qora yoki sarg'ish va qora) foydalanish ularning yorqin ko'rinishi uchun lozim. Bundan tashqari maktab oshxonasida alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun quyidagi sharoitlar ham yaratilishi tavsiya etiladi:

oshxonadagi yo'laklar va harakatlanish joylarida, ayniqsa taom tarqatish qismida tutqichlar o'rnatilishi;

bolalar uchun yordam kerak bo'lganda maxsus qo'ng'iroq tugmalari o'rnatilishi;

oshxonada yoritish vositalari yaxshi bo'lishi, yorug'lik darajasi kamida 300-500 lyuks bo'lishi talab etiladi. Yorug'lik barcha joylarda teng taqsimlangan bo'lishi, ayniqsa taom tarqatish joyida yetarli darajada bo'lishi;

oshxonada idish va qo'l yuvish burchagi tashkil etilishi hamda har bir burchak alohida gigiyena vositalari (sovun, qo'l yuvish vositalari va bir martalik qog'oz sochiqlar) bilan ta'minlanishi;

oshxonada toza ichimlik suvi, issiq suv, kanalizatsiya va ventilyatsiya

tizimlari sanitariya-epidemiologik talablarga mos ravishda ta'minlanishi;
 oshxona zalida bir o'ringa $100 - 120 \text{ cm}^2$, ko'zi ojiz va tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining oshxona zalida esa kamida 160 cm^2 maydon ajratiladi (28-rasm)¹.



28-rasm. Umumta'lim muassasasi oshxonasida qulay muhit yaratish

1 O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2022-yil 26-oktyabrdagi "SHNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari" 185-sonli buyrug'i 87-bandi

5-§. SANITARIYA XONALARIDA YARATILISHI TAVSIYA ETILGAN SHAROITLAR

Bino ichida joylashgan hojatxonalarda o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun maxsus jihozlangan kabinalar (binoning har bir qavati uchun kamida 1 dona maxsus kabina) nazarda tutilishi kerak.

Bunda, kabinaga kirish eshigi kamida 90 cm bo'lib, kabina oldida o'rindiqli aravacha burilishi uchun diametri kamida 140 cm bo'lgan bo'sh joy bo'lishi va hojatxonalarning pol qoplamasi taktil bo'lishi lozim.

O'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslar va ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ishlaydigan binolarda hojatxona kabinalari har bir qavatda bo'lishi hamda ish joyidan kamida 50 m uzoqlikda joylashishi kerak.

Ko'zi ojiz va ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'g'il va qizlar uchun maxsus sanitar-gigiyenik xonalar yonma-yon joylashishi mumkin emas.

Nogironligi bo'lgan bolalarning (shaxslar) evakuatsiya yo'lga to'siqlarsiz chiqishini ta'minlash maqsadida hojatxona yoki kabina eshigining kengligi kamida 90 cm bo'lishi va tashqariga ochilishi kerak.

O'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun hojatxona kabinasining ichki o'lchami (rakovinasiz) – eni kamida 165 cm hamda uzunligi 180 cm dan kam bo'lmasligi kerak.

Rakovinasi mavjud bo'lgan hojatxonaning o'lchami kamida 165x220 cm bo'lishi kerak.

Hojatxona kabinasi unitaz bilan yonma-yon o'rindiqli aravacha uchun alohida joy, metall shtanga, gorizontaal va vertikal tayanch tutqichlar hamda maxsus tovush moslamasiga ega bo'lishi lozim.

Binolardagi sanitariya-gigiyena xonalarda nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun shu jumladan, o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus jihozlangan kabinalar va sanitar moslamalar, shuningdek 1 dona maxsus unitaz, 40 cm dan ortiq bo'lmagan balandlikda har ikki tomonida vertikal tayanch tutqichlarga ega bo'lgan 1 dona maxsus pissuar, 80 cm dan ortiq bo'lmagan balandlikda bo'lgan 1 dona maxsus rakovina bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

O'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) foydalanishlari uchun dush xonalarida kamida bitta maxsus kabina nazarda tutilishi lozim. Bunda kabina oldida o'rindiqli aravacha kirishi va burilishi uchun burilish diametri 140 cm bo'lgan hudud nazarda tutilishi kerak.

Dush kabinasiga bevosita yechinib kiynish xonasidan kirish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak (bunda eshik tashqariga – yechinib kiynish xonasi tarafiga ochilishi tavsiya etiladi).

Sanitariya-gigiyena xonalarida nogironligi bo'lgan shaxslar foydalanadigan kabinalarning geometrik ko'rsatkichlari kamida quyidagicha bo'lishi kerak:

yopiq dush kabinalari, yechinish kabinalari uchun – 180x180 cm;

o'zaro ochiq o'tish joyli dush kabinalari uchun – 120x90 cm;
 hojatxona kabinalari uchun – 165x180 cm;
 ayollarning shaxsiy gigiyena xonasi uchun – 180x260 cm;
 yechinib kiyinish xonasidagi yechinish joyi uchun (o'rindiqli) – 60x150 cm.
 Kabinalar qatorlari orasidagi masofa 180 cm bo'lishi kerak.

Dush xonasi bilan birlashtirilgan sanitariya bo'linmasining o'lchamlari kamida 220x220 cm bo'lishi kerak. Sanitariya bo'linmasida o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) ga qulaylik yaratish uchun maxsus jihozlar (tutqichlar, metall shtangalar, buklanadigan o'rindiqlar) o'rnatilishi lozim.

Yechinib kiyinish xonalarining maydoni kamida 12 m² bo'lishi kerak.

Poldan 120 sm dan ortiq bo'lmagan balandlikdagi javonli individual shkaflar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay joylashgan bo'lishi va shkaflar oldida o'rindiqli aravacha bemalol harakatlanishi uchun 150x150 cm o'lchamdagi hudud nazarda tutilishi kerak.

Shkaflar o'lchamlari kamida 40x50 cm bo'lishi kerak.

Ochiq holda saqlanadigan kiyimlar uchun ilmoqlarning balandligi pol sathidan 120 cm yuqorida bo'lishi kerak.

Sanitariya-gigiyena xonalari orasidagi o'tish joyi masofasi quyidagicha bo'lishi lozim:


hojatxonalar bilan ochiq yoki yopiq dushxona kabinalari oralig'i – 180 cm;

pissuar va rakovina oralig'i – 240 cm;

o'rindiqli yechinib kiyinish xonalari shkaflari oralig'i - 180 cm².

Shuningdek, barcha gigiyena vositalari, jumladan, sovun va qog'oz dispenserlari bolalar oson foydalanishlari mumkin bo'lgan joyga o'rnatilishi tavsiya etiladi. Hojatxonada xavfsizlik va favqulodda holatlarda yordam chaqirish uchun maxsus tugmalar o'rnatilgan bo'lishi kerak. Hojatxona ichidagi devorlar va jihozlar ko'zga tashlanadigan kontrastli ranglarda bo'lishi, bu ko'rish qobiliyati past bolalarning yuzalarni oson aniqlashlariga yordam beradi. Barcha tutqichlar va xavfsizlik elementlari mustahkam va bolalar uchun xavfsiz tarzda ishlangan bo'lishi kerak (29-rasm).

2 O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2022-yil 26 oktyabrdagi "SHNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari" 185-sonli buyrug'i 77-82-bandlar



29-rasm. Hojatxonalarda yaratilgan sharoitlar

- 1 - Hojatxona ichidagi joy;
- 2 - Unitaz uchun ko'tariladigan tutqich (qog'oz ushlagich bilan);
- 3 - Unitaz uchun jo'mrak;
- 4 - Yordam chaqirish uchun simsiz tugma;
- 5 - Qo'ltiq tayoqlar uchun ilgak;
- 6 - Devorga o'rnatilgan, xavfsiz tayanch tutqichlar;
- 7 - Sensorli suv krani;
- 8 - Aylanadigan oyna;
- 9 - Qulay kirish;
- 10 - Rakovina uchun tayanch tutqich;

- 11 – Sensorli suyuq sovun dozatori;
- 12 – Hojatxona uchun taktil mnemosxema;
- 13 – Eshik o'lchami;
- 14 – Devor uchun kontrastli eshik panellari;
- 15 – Harakat yo'nalishidagi taktil belgilar;
- 16 – Devorga o'rnatilgan, xavfsiz tayanch tutqich;
- 17 – Eshikka o'rnatilgan ergonomik tutqich;
- 18 – Eshik boshqaruv tizimi;
- 19 – Taktil-ovozli yozuv moslamasi;
- 20 – Nogironlar aravasi uchun maxsus joy;
- 21 – Adaptiv tizim ("Band-bo'sh" yozuvli yorug'lik tablosi);
- 22 – Vizual-akustik tizim;
- 23 – Qo'l quritgichlar;
- 24 – Kiyim uchun ilgaklar³.

³ ТифлоСентр "Оборудование Адаптатсии и доступная среда сифровой портал " Масква 2020 г.

6-§ FAOLLAR ZALI

Faollar zali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirilishi, keng va yorug' bo'lishi tavsiya etiladi. Zalning ichki tuzilishi bolalarning erkin harakatlanishi uchun to'siqlardan xoli bo'lishi, keng va qulay yo'laklar bilan ta'minlanishi lozim. Nogironlar aravasida harakatlanuvchi bolalar uchun maxsus kirish va chiqish yo'laklari, shuningdek, aravachalar uchun qulay joylar tashkil etilishi zarur.


Sahna bolalar tomonidan yaxshi ko'rinadigan, tadbirlar davomida esa qulay foydalanish imkonini beradigan tarzda moslashtirilishi kerak. Nogironlar aravasida harakatlanuvchi bolalarning sahnaga chiqishi uchun maxsus to'siqsiz rampa yoki keng yo'lak o'rnatilishi lozim. Bundan tashqari, sahna atrofida tutqichlar va zinapoyalar joylashtirilishi, bu esa bolalarning sahnaga chiqishini osonlashtirish va xavfsiz harakatlanish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Yoritish tizimi faollar zalining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning yorug' va kontrastli ranglarda bezatilishi ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar uchun qulay muhit yaratadi. Devor va pol yuzalarining ranglari kontrastli bo'lishi, yo'nalishlarni oson aniqlash va harakatlanishni yengillashtirishga xizmat qiladi. Zal ichida harakat yo'nalishlarini ko'rsatuvchi belgilar va taktil belgilar joylashtirilishi tavsiya etiladi.

Faollar zali turli tadbirlar uchun zarur texnik va multimedia jihozlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Unda proyektorlar, ekranlar, audio va vizual o'quv vositalari o'rnatilishi lozim. Ushbu jihozlar ko'rish yoki eshitish qobiliyati cheklangan bolalarning tadbirlarda faol ishtirok etishlari uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi. Shuningdek, devor va pollar yorug'likni yaxshi aks ettiruvchi materiallardan tayyorlanishi tavsiya etiladi.

Maxsus jihozlangan stollar va o'rindiqlar tadbirlar davomida bolalarning erkin harakatlanishlarini ta'minlaydigan tarzda moslashtirilishi lozim. Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun alohida moslangan stol va o'rindiqlar ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Faollar zallariga bir paytning o'zida nogironligi bo'lgan bolalarning 60 – 70 foizi sig'ishi nazarda tutilishi, ularning maydoni esa kamida 100 m² bo'lishi kerak. Ko'zi ojiz va tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari zalida bir o'rindiq uchun 160 cm² joy mo'ljallanishi kerak (30-rasm) ⁴.

4 O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligining 2022-yil 26-oktyabrdagi "SHNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari" 185-sonli buyrug'i 87-band



30-rasm. Faollar zalida tayanch harakatida nuqsoni bor o'quvchilar uchun joy.

1. Faollar zalini umumiy ko'rinishi;
2. Eshik o'lchamlarining kontrastli belgilari;
3. Zinapoya zinalarini kontrastli belgilash;
4. Eshik oldidagi taktil ogohlantiruvchi belgilar;
5. Devorga o'rnatilgan tayanch tutqichlar;
6. Nogironlar aravasi uchun to'siqlar;
7. Nogironlar aravasi uchun lift;
8. Tomosha zalida nogironlar aravasi uchun joylar;
9. Zinapoya oldidagi taktil ogohlantiruvchi belgilar;
10. Binoning kontrastli bezatilishi;
11. Vizual-akustik tablo;
12. Induksion halqa;
13. Eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun joylar;
14. Ergonomik tutqich;
15. Sahna chetidagi taktil ogohlantiruvchi belgilar⁵

⁵ ТифлоСентр "Оборудование Адаптатсии и доступная среда сифровой портал " Москва 2020 г.

7-§ PSIXOLOG XIZMAT XONASINI JIHOZLASH BO'YICHA TAVSIYALARI

Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun psixologik xizmat xonalarini ta'mirlashda va jihozlashda maxsus talablar inobatga olinishi zarur. Xonalarning rangi, jihozlarning joylashuvi va ularning o'zaro uyg'unligi bolalarning ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Xonaning devorlari och yashil rangda bo'lishi tavsiya etiladi, chunki bu shaxsni tinchlantirishga yordam beradi. Polning jigarrang bo'lishi esa ishonch va qat'iyatlilik hissini uyg'otadi, shifti oq rangda bo'lib, yengillik hissini paydo qilib, diqqatni jamlashga yordam beradi.

Psixologik xizmat xonasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun individual stol va yumshoq stul joylashtirilishi lozim. Psixolog uchun esa 1 ta stol va 1 ta stul bo'lishi talab etiladi. Mashg'ulotlarning turli sharoitlariga ko'ra, stol va stullar turlicha joylashtirilishi mumkin, bu bolalar bilan individual ishlash imkoniyatini beradi va ularning orasidagi masofani saqlashni ta'minlaydi.

Jihozlarni tanlashda o'tkir qirralari bo'lmasligi tavsiya etiladi, chunki qirrali yoki burchakli jihozlar bolalar e'tiborni chalg'itishi va ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, xonadagi jihozlar va ularning rangi o'zaro uyg'un bo'lishi, makonni keng va qulay ko'rsatishi muhim.

Psixologik xizmat xonasi internetga ulangan personal kompyuter va printer bilan jihozlanishi kerak. Bu psixologga internet orqali zarur ma'lumotlarni olish, multimedia vositalaridan foydalanish va turli psixologik hamda intellektual testlarni o'tkazish imkonini beradi. Xonadagi shkafda me'yoriy hujjatlar, diagnostika natijalari, ko'rgazmali va didaktik materiallar, shuningdek, boshqa zaruriy adabiyotlar saqlanishi mumkin.





31-rasm. Psixolog xonasini zamonaviy jihozlash uslubi

8-§ O'QITUVCHI-LOGOPED XONASINI JIHOZLASH BO'YICHA TAVSIYALAR

O'qituvchi-logoped xonasini jihozlashga qo'yilgan talablar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni hisobga olgan holda moslashtirilishi kerak. Quyida ushbu talablar aniq o'lchovlar va jihozlash bo'yicha tavsiyalar bilan keltiriladi:

Logoped xonasida turli mashqlar va o'yinlar o'tkazish uchun mos asbob-uskunalar joylashtirilishi kerak. Bunda vizual va sensor ranglardan foydalanib, bolalar uchun qiziqarli materiallar yaratilishi lozim (33-rasm).

Bolalarning nutq nuqsonlarini tuzatishda yordam berish maqsadida devoriy ko'zgular o'rnatilishi kerak. Ko'zgularning poldan balandligi 85-100 cm bo'lishi kerak, shunda bolalar o'z lab va til harakatlarini ko'rib, tuzatish imkoniga ega bo'ladi.

Logoped xonasi vizual va didaktik materiallar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Ular bolalarning nutqini rivojlantirishda, ayniqsa o'yinlar va mashqlar orqali yordam beradi.

O'qituvchi nutqini tinglash va tahlil qilish uchun yozib olish moslamalari, kompyuter texnikasi va aloqa vositalari o'rnatilishi kerak. Logoped uchun zamonaviy audio va video yozish qurilmalari mavjud bo'lishi zarur.

Logoped uchun ish joyi (logoped stoli va stuli) bilan jihozlanishi hamda ergonomik talablariga mos bo'lgan o'quvchilar uchun stol va stullar bo'lishi lozim. Logoped xonasida yumshoq va qattiq mebel jihozlari, masalan, yumshoq kreslo, javonlar va jurnal stollari bo'lishi kerak. Bolalarning erkin harakatlanishi va qulay mashg'ulot o'tkazish uchun etarli joylar tashkil qilinishi kerak.

Logoped xonasida sinf doskasi bo'lishi va yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. Elektr yoritkichlar juda yorqin bo'lmasdan, yetarli darajada yorug'likni ta'minlashi hamda bolalar mashg'ulotlar vaqtida o'zlarini ko'rib turishlari uchun devoriy ko'zgu va yoritkichlar bo'lishi tavsiya etiladi.

Logoped xonasida zond va shpatellar saqlanadigan joylar va sterilizatsiya qilish uchun maxsus moslamalar bo'lishi kerak. Bu uskunalar bolalarning gigiyenasi va xavfsizligini ta'minlaydi (32-rasm).



32-rasm. O'qituvchi-logoped foydalanadigan asbob-uskunalari



33-rasm. O'qituvchi-logoped xonasi

9-§ TIBBIYOT XONASINI JIHOZLASH BO'YICHA TAVSIYALAR

Yangi qurilayotgan va qayta qurilayotgan obyektlarda tibbiyot xonalari 12 m² dan kam bo'lmagan maydonda va binoning birinchi qavatida joylashtirilishi;

birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan dori-darmon vositalari bilan ta'minlanishi;

dori-darmon vositalari uchun mo'ljallangan muzlatkich elektr manbai-ga yaqin va oson kirish mumkin bo'lgan joyda bo'lishi;

muzlatkich ichida saqlanadigan dori-darmon vositalari belgilangan haroratda bo'lishi uchun nazorat termometrlari bilan ta'minlanishi;

qo'l yuvish sanitariya burchaklari suv ta'minoti va oqizish tizimiga yaqin bo'lgan joyda bo'lishi hamda kerakli gigiyena vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi;

tibbiyot xonasida yumshoq va qattiq mebel jihozlar (yumshoq kreslo, javonlar, jurnal stol);

shifokor uchun ish joyi (stul va tibbiy yordam stoli);

taqdimotlar va namoyishlar uchun multimedia va aloqa vositalari;

ovoz yozish funksiyasiga ega kuzatuv kamerasi;

xonani quyosh nuridan muhofaza qiluvchi deraza pardalar;

havoni tozalash va mo'tadillash agregatlari (konditsioner yoki ventilyatsiya) bilan ta'minlanishi lozim (35-rasm).





35-rasm. Tibbiyot xonasining umumiy ko'rinishi

10 -§. KUTUBXONANI JIHOZLASH BO'YICHA TAVSIYALAR

Umumta'lim maktablaridagi kutubxonalarni jihozlash talablari inklyuziv ta'lim va zamonaviy talablarga mos bo'lishi kerak. Quyida har bir yo'nalishga tegishli jihozlash talablari va tavsiyalar keltirilgan:

kutubxonaning umumiy maydoni har bir o'quvchiga nisbatan 15-30 cm^2 dan kelib chiqib jihozlanishi;

har bir o'quvchiga nisbatan o'tirish joylari uchun 250 – 300 cm^2 ajratilishi zarur. Mutolaa uchun qulay mebel jihozlari bilan ta'minlash;

kompyuter o'rinlari uchun maydon kamida 4-6 m^2 bo'lishi lozim. Ular zamonaviy kompyuter texnikasi va aloqa vositalari bilan jihozlanishi;

1000 kitobga 5 m^2 maydon ajratilishi lozim. Yopiq saqlash uchun esa 1000 kitobga 2,5 m^2 hisobidan kitob javonlari o'rnatilishi⁶;

kutubxona umumiy o'quvchilar kontingentining 5-10% ni bir vaqtda joylashtira oladigan yetarli xonalarga ega bo'lishi kerak. Kutubxona maydoni kamida 42 m^2 bo'lishi ;

kutubxona shovqindan himoyalangan bo'lishi zarur. Tashqi shovqin manbalarining ta'siri kamida bir qismi hududda minimal bo'lishi;

kutubxona tabiiy va sun'iy yoritish bilan yetarli darajada ta'minlanishi;

havo tozalash va isitish tizimlari yaxshi ishlashi kerak. Tegishli haroratni ta'minlash uchun konditsioner va isitish tizimlari bilan jihozlangan bo'lishi;

nogiron foydalanuvchilar uchun panduslar va tutqichlar o'rnatilishi kerak. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun maxsus mebel jihozlari va moslamalar o'rnatilishi (36-rasm);

⁶ O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2021- yil 13-apreldagi "SHNQ 2.08.02-09 Jamoat binolari va inshootlari" dagi 82-sonli buyrug'i.

kutubxona devorlari, shiftlari, yoritish elementlari yorqin va milliy mafkuralarga mos bo'lishi kerak. Yorug'likni kuchaytirish maqsadida devor va shiftlar chang chiqarmaydigan materiallardan tayyorlanishi; zamonaviy avtomatik radiochastota identifikatsiya tizimida ishlovchi moslamalar jamlanmasi bilan ta'minlanishi kerak.



36-rasm. Maktab kutubxonasi

11-§. SINIF XONALARNI JIHOZLASH BO'YICHA TAVSIYALAR

Umumta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya va fan xonalarini xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda zamonaviy, qulay, xavfsiz jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

O'quvchilar uchun mo'ljallangan asbob-uskuna va jihozlar sanitariya-gigiyena talablariga javob berishi hamda ta'limda qo'llash uchun sertifikatga ega bo'lgan maxsus mebellar to'plami bilan jihozlanishi zarur.

O'quv-amaliy va laboratoriya xonalarida o'quvchilarning yozishi, o'qishi, tajriba o'tkazishi va mustaqil ishlashlari uchun yetarli joy bo'lishi lozim.

O'quvchilar uchun ikki o'rinli stol va stullarning o'zaro muvofiqligi ta'minlanishi, shuningdek, sinf o'quvchilari bo'yining guruhlanishi inobatga olinishi lozim.

Qo'l yuvish sanitariya burchaklari suv ta'minoti va oqizish tizimiga ulangan bo'lishi hamda zarur bo'lgan gigiyena vositalari bilan ta'minlanishi talab etiladi.

Sinf xonasida:

dars jarayonida yozish va tushuntirish uchun foydalaniladigan sinf doskasi;

o'qituvchi uchun qulay ish joyi (stol va stul);

o'quvchi ish joyi (har bir o'quvchi uchun mos stol va stullar);

o'quvchilarning shaxsiy kiyimlari, o'quv qurollari va ko'rgazmali vositalarni saqlash uchun maxsus mebel jihozlar;

zamonaviy kompyuter texnikasi to'plami (ovoz chiqargich dinamik bilan) va chop etish vositasi;

taqdimotlar va namoyishlar uchun multimedia vositalari;

raqamli laboratoriya texnik vositalari to'plami (VR);

kuzatuv kamerasi (ovoz yozish funksiyali);

davlat ta'lim standartiga muvofiq o'quv dasturlari;

darsliklar va o'quv qo'llanmalar;

fan o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmalar;

o'quvchilar uchun ish daftarlari;

didaktik tarqatma materiallar;

fanga oid portretlar, elektron resurslar, ko'rgazmali vositalar va videomahsulotlar (multimedia ilovalari, virtual laboratoriyalar, o'quv filmlari, slayd-prezentatsiyalar, namoyish eksperimentlarni ko'rsatuvchi animatsiyalar) bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

didaktik o'yinlar, yasash-qurish konstruktor texnologiyalar va geometrik

shakllar tasvirlangan to'shamalar;

quyosh nuridan muhofaza qiluvchi jalyuza yoki pardalar;

havoni tozalash va mo'tadillash vositalari (konditsioner yoki ventilyatsiya);

tuvaklarga ekilgan tabiiy gullar;

suv dispanserlari (kuller);

chiqindi tashlash uchun maxsus idishlar (urnalar);

qo'l yuvish uchun sanitariya burchagi tashkil etilgan bo'lishi lozim.

O'quvchilarning erkin harakatlanishi uchun o'quv xonalarini jihozlashda jihozlar orasidagi masofa quyidagicha bo'lishi kerak⁷:

ikki o'rinli stol qatorlari orasi 60 cm dan kam bo'lmasligi;

bitta qatordagi stollar orasi 50 – 70 cm dan kam bo'lmasligi;

devor bo'ylab turuvchi shkaflar bilan stollar orasi 50 – 70 cm dan kam bo'lmasligi;

oxirgi stoldan devorgacha masofa 70 cm dan kam bo'lmasligi;

tashqi devor (oynabandli) bilan stollar orasidagi masofa 100 – 120 cm dan kam bo'lmasligi;

ko'rgazmali stoldan o'quv doskasigacha 100 cm dan kam bo'lmasligi;

birinchi partadan o'quv doskasigacha 2,4 – 2,7 m bo'lishi;

sinf doskasidan oxirgi partada o'tirgan o'quvchining joyigacha bo'lgan masofa 860 cm bo'lishi;

sinf doskasi pastki qirrasining erdan balandligi 80 – 90 cm bo'lishi;

sinf doskasining ko'rinadigan burchagi (3 m uzunlikdagi doskaning chetidan oldingi stoldagi o'quvchining oxirgi o'rindig'ining o'rtasigacha) maktabning 5 – 11-sinf o'quvchilari uchun 35 gradusdan va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun 45 gradusdan kam bo'lmasligi kerak.

O'quvchilar doskani ko'rishga qiynalmasligi uchun bir o'rinli parta va stollar uch qator qilib joylashtirilishi kerak.

Barcha qatorlarga birinchi bo'lib kichik o'lchamdagi parta (stol)lar qo'yilishi, zaruriyat bo'lganda, katta o'lchamdagi mebellar doskaga yaqin bo'lgan chetki qatorlarga joylashtirilishi lozim.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining "Maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini jihozlashda foydalaniladigan mebellarga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablarini (0057-23-son SanQvan) tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 7-noyabrdagi 24-son (hisob raqami 220, 2023-yil 7-dekabr) qarori

Sinflar va laboratoriyalardagi o'quvchilar o'tirish joylarini taqsimlashda o'quvchining salomatligi holati e'tiborga olinishi lozim (37-rasm).

har qanday qatordagi birinchi va ikkinchi stollardagi o'tirish joylari eshitish qobiliyati past o'quvchilarga ajratilishi (og'zaki nutq 2,4 m, shivirlash esa 0,5 – 1 m masofadan qabul qilinadi);

ko'rish qobiliyati past o'quvchilarga tabiiy yoritish sharoiti ko'proq bo'lgan deraza tomondagi chekka stollardan joylar ajratilishi;

ko'zoynak bilan ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lgan o'quvchilar istagan joylariga o'tirishlari;

revmatizm kasalliklari bor, tez-tez angina va yuqori nafas yo'llarining o'tkir shamollashiga moyil o'quvchilarga derazadan uzoqroqdagi o'tirish joylari ajratilishi;

o'quvchilarning gavdalari buzilishini profilaktika qilish maqsadida, ularning o'sishiga mebel raqami mos kelishi, oxirgi qatorda o'tirganlar bir yilda 2-marta joylarini o'zgartirishlari kerak.

Sinf va xonalarga mebel tanlashda o'quvchilarning o'sishini oddiy oyoq kiyimida bo'y o'lchagich yoki 2 metrlik maxsus o'lchagich yordamida o'lchash lozim.

o'lchagichning bir tomonidagi 15 cm oraliqda bo'lingan 1 m dan boshlab qo'llanilishi;


bo'lingan oraliqlar orasidagi intervallarda raqamlar yoki mebel guruhlarini belgilari qo'yilishi;

har bir sinfda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda eshik yonida rangli o'lchagichlar bo'lishi, unga mebel guruhiga mos ravishda 15 cm kenglikdagi rangli chiziqlar kiritilishi;

devorga chiziladigan chiziqlar, xususan, to'q sariq rang bo'yi 100 – 115 cm, binafsha rang bo'yi 115 – 130 cm, sariq rang bo'yi 130 – 145 cm, qizil rang bo'yi 145 – 160 cm, yashil rang bo'yi 160 – 175 cm, havo rang bo'yi 175 – 185 cm, qora rang bo'yi 185 cm dan yuqori o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.

O'quvchilar mustaqil ravishda o'z bo'ylarini o'lchashlari va markalash rangi bo'yicha zarur mebelni topishlari va tibbiyot kartalaridan o'quvchilarning bo'yiga oid ma'lumotlardan foydalanish uchun bo'y ko'rsatkichiga poyabzalning tag-charmi va poshnasi hisobidan 2 cm qo'shish kerak.





37-rasm. Sinflar va laboratoriyalardagi o'quvchilar o'tirish joylarini taqsimlashda o'quvchining salomatligi holati e'tiborga olinishi

1. **Evakuatsiya rejasi** – bu yerda binodan xavfsiz chiqish yo'llarini ko'rsatuvchi evakuatsiya rejasi joylashgan. Bu jadval binodan favqulodda holatlarda tez va xavfsiz chiqishni ta'minlash uchun muhim.
2. **Doska** – odatiy sinfxonalarda mavjud bo'lgan yozuv va dars o'tish uchun mo'ljallangan doska.
3. **Brayl yozuvli kompyuter** – ko'rish qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar uchun Brayl shriftli kompyuter va klaviaturalar.
4. **Moslashtirilgan o'quv stollari** – umumiy o'quvchilar uchun, shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham qulay bo'lgan maxsus stollar.
5. **Nogiron aravasidagi o'quvchi uchun stol** – nogironlar aravasidagi o'quvchilarga moslashtirilgan maxsus stol. Stolning balandligi va kengligi o'quvchining harakatlanishiga mos keladi.
6. **Xavfsizlik tizimi (qo'ng'iroq tugmasi)** – bu yerda favqulodda holatlarda qo'ng'iroqni bosish mumkin bo'lgan xavfsizlik tugmasi mavjud.
7. **Eshik va kirish uchun maxsus moslamalar** – eshik hududida nogironlar

uchun maxsus qulay kirish, pandus va eshik ostonasini ko'rsatadi.

9. **"Chiqish" belgisi** – evakuatsiya yoki favqulodda holatlarda chiqish yo'lini ko'rsatuvchi yozuv.
10. **Evakuatsiyaning audio-va vizual belgilari** – eshitish va ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar uchun maxsus evakuatsiya belgisi.
11. **Video kuzatuv kamerasi** – sinfnig xavfsizligini ta'minlash uchun o'rnatilgan kamera.
12. **Tutqichlar** – harakatlanishda qiyinchiliklar bo'lgan o'quvchilar uchun o'rnatilgan maxsus tutqichlar.
13. **Evakuatsiya va xavfsizlik** uchun audio-va vizual ma'lumot taqdimotchilari – evakuatsiya jarayonini osonlashtirish uchun audio va vizual ko'rsatmalar beradi.
14. **Taktil yo'l** – ko'zi ojiz bolalar uchun joylashtirilgan maxsus taktil yo'llar, bu ularning sinfda xavfsiz harakatlanishlariga yordam beradi.

Aravachadagi bola uchun o'quvchi joyining minimal o'lchami (aravachani burishni hisobga olgan holda) – 1,5 x 1,5 m.



12-§. ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR UCHUN BOSHQA ZARURIY JIHOZLAR



38-rasm. Bolalarning jismonan sog'lom bo'lishlari uchun o'tirgichlar, to'plar va gimnastik tayoqlar



Royal



Pianino


39-rasm. Pianino yoki royal



40-rasm. Bolalar o'zlarining taqlid harakatlarini kuzatish va ularni to'g'rilash imkonini beradigan ko'zgular



41-rasm. Tinglab tushunish va talaffuzni rivojlantirish uchun ovoz kuchaytirgich hamda statsionarlar



42-rasm. Logopedik zond va shpatel



43-rasm. Talaffuzni kuzatish va tahlil qilish uchun devoriy ko'zgu



44-rasm. Zondlarni saqlash va sterilizatsiya qilish moslamasi



45-rasm. Ko'rgazmali qurollarni saqlash uchun joy (materiallarni saqlash bo'limi mavjud javonli shkaf)



46-rasm. Ma'lumotlar va axborotlar uchun stendlar



47-rasm. Sinf xonasi uchun sinf doskasi



48-rasm. Sinf xonasi uchun o'qituvchi ish joyi



49-rasm. Sinf xonasi uchun o'quvchi ish joyi



50-rasm. Bolalar xonasini jihozlash:

- A) to'shakli karavotlar;
- B) o'tirish uchun o'rindiqlar (tumba va kursi);
- C) saqlash uchun mebel jihozlari;



51-rasm. Ritmik va davolash uchun mo'ljallangan sport anjomlari to'plami (gimnastik gardish, to'plar, gimnastika tayoqlari, stol tennisi to'pi, gimnastik yo'lakcha, sekundomer, turli xildagi (trenajyor) massaj apparatlari, espanderlar, rezina moslamalari, turli xil o'lchamdagi gardishlar, turli xil gantellar, gimnastika matrasi (to'shak), sport anjomlari uchun javon, kiyim javoni, oyoq kiyimlari uchun javon, stol va stul to'plami).



52-rasm. Konstruktor o'yinlar to'plami (mozaika, domino);



53-rasm. Xona o'lchamidan kelib chiqib gilam yoki paloslar

GLOSSARIY

- Nogironligi bo'lgan shaxs** - ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs.
- Pandus** - bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida joylashgan va vertikal harakatlanish uchun moslashtirilgan qiya tekislik.
- Nogiron bolalar** - jismoniy, aqliy yoki sensor nuqsonlari sababli alohida ehtiyojga ega bo'lgan va ta'lim jarayonida maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalar.
- Taktil belgilar** - ko'rish qobiliyati past yoki ko'zi ojiz bolalar uchun ularning xavfsizlik va yo'nalish topishlarini ta'minlash maqsadida pol, devor va boshqa sathlarga o'rnatilgan relyefli belgilar.
- Tayanch tutqichlar** - bolalarning harakatlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida yo'lak, zinapoya va boshqa joylarda o'rnatilgan mustahkam tutqichlar.
- Sensor muhit** - bolalarning sezish, eshitish va ko'rish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus yaratilgan muhit.
- Mobil ko'targichlar** - tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun to'siqlardan oson o'tish imkoniyatini beradigan maxsus ko'targich uskuna.
- Kontrastli belgilari** - ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalarning zinapoya, eshik va yo'laklarni oson aniqlashlari uchun joylashtirilgan yorqin rangli belgilari.
- Multimedia vositalari** - bolalarning o'quv jarayonini boyitish va ularning qiziqishini oshirish uchun qo'llaniladigan vizual va audio vositalar.
- Ovoz kuchaytirgichlar** - eshitish qobiliyati past bo'lgan bolalar uchun ma'lumotlarni yaxshiroq qabul qilish imkonini yaratadigan uskuna.
- Sinf doskasi** - maktab sinflarida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan yozish va ko'rgazmali materiallarni namoyish qilish uchun ishlatiladigan maxsus taxta.

- O'quvchi ish joyi -** ta'lim oluvchiga o'quv dasturlariga muvofiq amaliy ko'nikma va malakalarni egallash uchun mo'ljallangan maxsus jihozlangan joy.
- O'qituvchi ish joyi -** o'qituvchining dars o'tishi va o'quvchilar bilan samarali ishlashi uchun zarur vositalar bilan jihozlangan joy.
- Moddiy-texnik jihozlar -** o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish uchun zarur bo'lgan uskunalar, mebellar, kompyuterlar, laboratoriya asbob-uskunolari va boshqa vositalar.
- Sinf xonasi -** ta'lim muassasasida o'quvchilarga dars mashg'ulotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan xona;
- O'quv jihozlari -** o'quv-amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonida foydalaniladigan asbob-uskuna, o'quv-laboratoriya va o'quv ustaxona jihozlari, axborot-kommunikatsiya texnikalari va boshqalar.
- Inklyuziv ta'lim -** alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim;
- Inklyuziv ta'lim sinfi -** maktabdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) o'quvchilar bilan teng huquqli va birgalikda ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf;
- Maxsus yordam ko'rsatish xonasi -** maxsus pedagoglarning inklyuziv ta'lim hamda boshlang'ich tayanch korreksion sinflarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib borishi va muvofiqlashtirishi uchun tashkil qilingan xona.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007> ;
2. O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" 2020-yil 15-oktyabrdagi O'RQ-641-sonli qonuni <https://lex.uz/docs/5049511> ;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/4312785> ;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5217-sonli qarori <https://lex.uz/ru/docs/5569803> ;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-sonli qarori <https://lex.uz/en/docs/5679836> ;
6. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/3436192> ;
7. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "2020-2025 yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lim Inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi" 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son Qaroriga 1-ilova [https://nrm.uz/contentf?doc=636691_2020-2025_yillarda_halq_talimi_tizimida_inklyuziv_talimni_rivojlantirish_koncepciyasi\(o%E2%80%98r_prezidentining_13_10_2020_y_pq-4860-son_qaroriga_1-ilova\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=636691_2020-2025_yillarda_halq_talimi_tizimida_inklyuziv_talimni_rivojlantirish_koncepciyasi(o%E2%80%98r_prezidentining_13_10_2020_y_pq-4860-son_qaroriga_1-ilova)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana) ;
8. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5044711> ;
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'quv asbob-

- uskunolari va anjomlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida"gi <https://lex.uz/docs/3231533> ;
- 10.** O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirining "Jamoat binolari va inshootlari"ga 4-son o'zgartirish (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 18-mayda hisobga olindi, hisob raqami 13-son) 2021-yil 13-apreldagi 82-son buyrug'i. <https://lex.uz/en/docs/5758842?ONDATE=07.08.2024>
 - 11.** O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining "Maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini jihozlashda foydalaniladigan mebellarga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablarini (0057-23-son SanQvan) tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 7-noyabrda 24-son (hisob raqami 220, 2023 yil 7 dekabr) qarori <https://lex.uz/docs/6689679>;
 - 12.** O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining "Umumta'lim maktablarida ta'lim sharoitlari va tashkil etilishiga qo'yiladigan sanitariya-epidemiologik talablar to'g'risida" gi 2017-yil 22-dekabrda (0341-16-son SanQvaN) qarori <https://sanepid.uz/departments#tab67>;
 - 13.** O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2022-yil 26-oktyabrda gi "SHNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalari" 185-sonli buyrug'i <https://lex.uz/uz/docs/6311402>
 - 14.** O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2021-yil 13-aprelda gi "SHNQ 2.08.02-09 Jamoat binolari va inshootlari"dagi 82-sonli buyrug'i. <https://lex.uz/en/docs/5758842?ONDATE=07.08.2024>;



II. Monografiya, ilmiy maqola va ilmiy to'plamlar:

1. Amirsaidova Sh.M. "Maxsus pedagogika fani taraqqiyotida sharq mutafakki-ri g'oyalarining o'rni va roli" . Ped. fan. nom dos - T., 2006;
2. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" Toshkent. 2014;
3. R.Shomaxmudova. "Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari". Toshkent: XT «Roziqov O.J». 2007 y;
4. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika" Chirchiq 2022 yil;
5. ТифлоСентр "Оборудование Адаптатсии и доступная среда цифровой портал " Москва 2020 г.;

III. Internetdan olingan manbalar:

1. <https://lex.uz>
2. <https://www.norma.uz>
3. <https://trm.uz/>
4. <https://www.uzedu.uz>
5. <https://tiflocentre.ru>
6. <https://news1nova.tilda.ws/page29972431.html>
8. <https://sch1699-udprf.com/svedeniya-ob-obrazovatelnoj-organizaczii/dokumentyi/materialno-texnicheskoe-obespechenie-obrazovatelnoj-deyatelnosti-dlya.html>

**Maqolalarda foydalanilgan misol, ko'chirma, statistik ma'lumotlar,
ilmiy-nazariy fikrlar va ma'lumotlar aniqligi hamda stilistikasiga mualliflar
javobgardir.**

Hamkorlar:

Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi (JICA)ning Maktabgacha ta'limda
inklyuziv ta'lim amaliyotini kuchaytirish loyihasi guruh rahbari, Yaponiya xalqaro
taraqqiyot markazi katta ilmiy xodimi, Inc.

Kohei Horiba

Dizayner va sahifalovchi:

Saloxitdinov Ixvoldin Sirojiddinovich

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi
navbatdan tashqari o'tkazilgan Ilmiy-metodik kengashining 2025-yil __-maydagi
00-son yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi